




TURKIY ADABIYOT  
DURDONALARI

MEHMET O'NDER  
XAYRIDDIN IVGIN  
DUNDAR ALP

42



**MEHMET O'NDER**  
**XAYRIDDIN IVGIN**  
**DUNDAR ALP**



**"O'ZBEKISTON"**  
**TOSHKENT — 2022**

UO'K 821.512.161-31  
KBK 84(5Turk)-44  
M 47

### **Tahrir hay'ati:**

Xayriddin Sulton — hay'at raisi,  
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayeov,  
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,  
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

### **Ishchi guruh:**

Ikrom Bo'riboev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,  
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

### **To'plovchi va nashrga tayyorlovchi**

### **Shermurod Subhon**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalari iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'laml, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

**MEHMET O'NDER**



## MOVLONO RUMIY SIYRATI

Sir emaski, dahriy sho‘ro tuzumi davrida Sharq dunyosining ko‘plab mutafakkir olim-u adiblari ijodiga bir tomonlama, ya‘ni sinfiylik nuqtayi nazaridan yondashildi. Jumladan, Jaloliddin Rumiyy ijodi ham bundan mustasno emas. Faqatgina mustaqillikdan so‘ng mamlakatimizda mazkur adib hayoti va ijodiga xolis baho berish imkoniyati tug‘ildi. Chunonchi, so‘nggi yillarda Sharqning ushbu buyuk daho adibi ijodi borasida olimlarimiz tomonidan qator tadqiqot ishlari olib borildi hamda Rumiyy meros qoldirgan nodir asarlar asliyatdan o‘zbek tiliga o‘girilib, keng o‘quvchilar ommasiga taqdim etildi.

E‘tiboringizga havola etilayotgan turk adibi Mehmet O‘nderning “Mavlono” biografik asari tarjimasiga ham ana shunday ezgu niyat ilinjida qo‘l urildi. Boshqacha qilib aytganda, yagona maqsadimiz buyuk Mavlono ning “*Yo bo‘lganingdek ko‘rin, yo ko‘ringaningdek bo‘l*” o‘gitiga amal qilib, Jaloliddin Rumiyy siymosini imkon qadar bor bo‘y-u basti bilan o‘quvchilarimiz ko‘z o‘ngida gavdalantirishdir. Darhaqiqat, Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” asarida hali bolalik chog‘idayoq valiylik alomatlari zuhur etgan Mavlono hayoti debochasi xususida ishorali bir tarzda shunday ma‘lumot beradi: “*Alarning valodati Balxda ermish, olti yuz to‘rttda, Rabi ul-avval oyining oltisida. Deb durlarki, Mavlono hazratlarig‘a besh yoshidin beri g‘aybe suvar va ruhoniyy ashkol, ya‘ni maloyika sufrasi va xavos ins-u jin pardasiki, qibobi izzat masturlaridurlar, zohir va mutamassil bo‘lurlar ermish*”. Turkiyaning Qo‘nyo shahri Jaloliddin Rumiyy maqbarasi qoshida tashkil etilgan Mavlono muzeyi direktori lavozimida uzoq yillar faoliyat yuritgan Mehmet O‘nder Mavlono haqidagi biografik asarida Jaloliddin Rumiyyning “Ma‘naviyyi masnaviyy”, “Devoni kabir”, “Fihi mo fihi” asari hamda zamondoshlariga yozgan 147 maktubdan iborat “Maktubot”i qatori Sulton ul-ulamo Baho

Valadning “Ma’orif”, Shams Tabriziyning “Maqolot”, Mavlono-ning o’g’li Sulton Valadning “Ibtidonoma”, shuningdek, Abdurahmon Jomiyning “Nafahot ul-uns” kabi asarlaridan keng foydalan-ganini ko’ramiz. Ayniqsa, XV asr mavlaviyshunos olim Aflokiy Ahmad Dadaning “Manoqibi orifin” risolasi “Mavlono” asari uchun asosiy manba bo’lib xizmat qilgan.

Shuni ham aytish kerakki, muallif mazkur manbalar bilan cheklanmay, o’z navbatida, G’arb tarixchi olimlari Villay Durant, Moris Bares, Marian Xeri va “Masnaviyi ma’naviy”ni ingliz tiliga o’g’irgan Reynold A. Nikolsonlarning qarashlariga ham murojaat qilgan.

Mazkur biografik asarning ahamiyatli jihati shundaki, o’zbek o’quvchilariga ilk bor Mavlono Jaloliddin Rumi hayoti va ijodi-ning tadrijiy takomili borasida yaxlit ma’lumot beradi. Muallif jahonshumul adibning Balxda Sulton ul-ulamo Baho Valad xona-donida tavallud topib, Qo’nyoda vafot etgunga qadar kechgan muhim hayotiy voqealiklarini qalamga olarkan, shu bilan birga, XII asr boshlaridagi siyosiy vaziyatga ham to’xtalib o’tadi. Xususan, Movarounnahr-u Xurosonni o’z ichiga olgan Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mamlakatlari hukmdori Muhammad Xorazmshoh hamda Chingizxon boshchiligidagi mo’g’ullar qo’shini o’rtasida kechgan kurashning salbiy oqibatlariga e’tiborni qaratadi.

Shuningdek, o’quvchilar Mavlono hayoti va ijodi barobarida buyuk mutafakkir adibning “Ma’naviyi masnaviy” asari, ruboiy, g’azallardan tarkib topgan “Devoni kabir” (“Ulug’ devon”) kulliyoti, mutasavvuf olimning diniy va dunyoviy qarashlari, falsafiy mushohadalari suhbat holida hikoya, misollar orqali aks ettirilgan “Fihi mo fihi” (Nimaiki Undadir, Undandir), asari va nihoyat, turli davrlarda olib borgan yozishmalarini o’z ichiga olgan “Maktubot” kabi nodir asarlarining bitilishiga sabab bo’lgan yoxud bevosita ko’magi tekkan murshidi komil Shams Tabriziy, saljuqiylar sa-royi amiri Sulaymon Parvona, kotib Hisomiddin Chalabiy, zargar Shayx Salohiddin hamda o’g’li Sulton Valad kabi tarixiy shaxslar haqida ham yetarlicha ma’lumotga ega bo’lishadi.

Bundan tashqari Mavlono shaxsiyati, yashash tarzi, oila, ahli ayol va yaqinlariga bo’lgan ibratomuz munosabati ham kishi-

ni befarq qoldirmaydi. Ayniqsa, ayollarga muomala, munosabat masalasida ularga bema'ni zug'um, tazyiq o'tkazishdan ko'ra ayol zotiga yaratilish fitrati hamda ruhiyatining injaliklariga xos va mos ravishda yondashilmog'i lozimligi haqidagi fikrlari yana bir bor uning o'rta asr muhitida naqadar ilg'or dunyoqarashga ega bo'lganligidan dalolat beradi.

Mavlono nafaqat Islom dinidagi turli oqim yoxud mazhablar o'rtasidagi tushuncha-yu tasavvurlarni yagona nuqtaga birlashtira oldi, shu bilan birga, o'z davrigacha mavjud bo'lgan muxtalif dinlardagi mushtarak qarashlarni ham uyg'unlashtirib, asarlarida yuksak darajada talqin etdi. Zero, uning buyukligi ham, asarlarining yakdillikka chorlovchi kuch-qudrati ham shunda.

**Shermurod Subhon,**

*O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi*

# MAVLONO

(Biografik roman)

Xom edim / Pishdim / Yondim

## I BO'LIM

### BALX SHAHRIDA BIR OLIM: OLIMLAR SULTONI BAHUDDIN VALAD

Bugungi kunda shimoli-g'arbiy Afg'onistonni ham o'z ichiga olgan O'rta Osiyoning Turkiston hududida deyarli barcha aholi turkiy tilda gaplashadi. Orol dengiziga quyilgan Amudaryoning bu qismida, Eron chegarasiga yaqin eski tijorat yo'li ustida Balx shahri qad ko'targan. Xurosonning ushbu keksa shahri o'zining necha ming yillik tarixi davomida ozmuncha siyosiy va ijtimoiy voqealarga guvoh bo'lmagan. Asrlar osha turli istilolar ostida ezilgan hamda turli din va madaniyatlar ta'sirida qolgan Balx shahri ummaviylar davridan boshlab Islom davlatlari nazoratiga o'tgach, hududdagi butparast, ma'jusi, shomon, buddaviy, nasroniy ibodatxonalari o'rniga jome masjidlar qurilib, shaharga "qubbat ul-islom" (Islom qubbasi) sifati beriladi. Ba'zi arabcha manbalarda Balxni "ummul-bilod" — "shaharlar onasi" deb ham atashadi.

Ma'lum bir davrdan so'ng Balx saljuqiylar davlati hukmronligi ostida yetakchi ilm va urfon markaziga aylanganini ko'ramiz. Saljuqiylar davlati bosh vaziri Nizomulmulq qurdirgan madrasa, kutubxona va rasadxonalar Balxda ulkan mavqega ega bo'ladi. Yillar davomida olib borilgan doimiy istilolar xalqni qattiq holdan toydirgan edi. Bu dunyoda huzur-halovat topa olmagan omma endi butun diqqat-e'tiborini narigi dunyo haqidagi tushuncha va e'tiqodga qaratgan edi. Chunonchi, turli bo'hron va inqirozlar hukm surgan mana shunday kunlarda tasavvufiy tushunchalarning keng yoyilishiga zamin yaratiladi. Balxda to'plangan bir qator so'fiylar "vahdat ul-vujud" falsafasining turli dunyoqarash va tushunchadagi vakillari sifatida xalq o'rtasida keng e'tibor qozona boshlaydilar. Islom dini doirasida turfa tasavvufiy suhbatlar tashkil etilarkan, Tangri vuslati yo'lida ma'naviy go'zallikka intilish tobora kuchaya boradi.



Saljuqiylardan so'ng Xorazmshohlar qo'liga o'tib poytaxtga aylangan Balxning madrasalari mashhur olimlar, shayxlar hamda ularning muridlari-yu dunyodan qo'lini yuvib, qo'ltig'iga urgan va tavakkulga bo'yin eggan darveshlar, darbadar sayyohlar, talabalar bilan to'lib-toshmoqda edi.

Ba'zan olimlar, shayxlar o'rtasida ham dunyoqarash va e'tiqod masalasida turli ziddiyatlar, nizolar o'rta qo'rtaga chiqmoqda edi. Ana shunday murakkab vaziyat hukm surgan Balxda bir olim bor ediki, u jozibali so'zlari va saboqlari bilan insonlarni o'z e'tiqodi atrofiga tortmoqda edi. Qolaversa, uning xalq o'rtasidagi mavqeyi yuksakligi tufayli madrasasi nafaqat muridlari bilan to'lib-toshmoqda, balki u qaysi bir jamoada paydo bo'lmasin, o'sha yer mahshar<sup>1</sup>ga o'xshardi. So'zlari darhol yod olinar, qog'ozga bitilib, qo'lmaqo'l bo'lib ketardi. Bir bor tinglagan kimsa oylar davomida uning ta'sirida yurardi. Xullas, uning nufuzi hatto shayxlarni ham qizg'antiradigan darajada tobora ortib bormoqda edi.

Shunga qaramay, u tavoze bilan Haqqa qullik qilar, insonlarni Haq va haqiqat yo'li: to'g'rilik, yaxshilikka boshlardi. Xalq ko'rsatgan hurmat va e'tiborni yana xalqning o'ziga qaytarardi.

Balx shahrining hatib o'g'illari urug'iga mansub, yetti avlodi olim, o'zi, so'zi to'g'ri ushbu taniqli olimga Husayn Xatibiy o'g'li Bahouddin Valad der edilar. Ba'zi manbalarda uning onasi xorazmshohlar xonadoniga mansub, ya'ni Sulton Alouddin Muhammad Xorazmshohning qizi bo'lgani qayd etiladi.

Bahouddin Valad otasi Husayn Jaloliddin Xatibiydan juda erta ayrilib, nihoyatda madaniyatli ayol hisoblangan onasining qo'li ostida tahsil va tarbiya oladi. U hali yosh bo'lishiga qaramay, kuchli hofizasi, noyob iste'dodi va zakovati tufayli Balxdagi nufuzli madrasalardan birida mudarrislikka tayinlanib, tasavvuf yo'lida yuksak martabalarga erishadi. Ushbu yosh olimdan fayz olish uchun mamlakatning turli shahar va qishloqlaridan oqib kelgan murid-u talabalarning had-hisobi yo'q edi. Uning ajdodlari din yo'lida sa'y-harakat ko'rsatib, oxirat saltanatiga erishgan zotlar edi. Endi u ham ayni shu yo'ldan yurib, insonlarga ma'naviy olam ehsonlarini sochmoqda edi.

<sup>1</sup> **Mahshar** — qiyomat kuni barcha to'planadigan maydon.

Ilmi va karomatiga binoan o‘z paytida unga “Sulton ul-ulamo” — Olimlar sultoni degan nom berilgan edi. Bu unvonning berilishi manbalarimizda shunday qayd etiladi: bir kecha Balxning taniqli uch yuz olimi bir xil tush ko‘radi. Sahroda qurilgan kattagina chodir ichida Hazrati Muhammad (s.a.v.) sahobalari bilan o‘tirgan bir paytda balxlik Baho Valad odob va hurmat bilan salom berib chodirga kiradi. Shunda payg‘ambarimiz Baho Valadga iltifot ko‘rsatib, unga o‘ng tomonlaridan joy beradilar va u yerda hozir bo‘lgan mufti-yu imomlarga qarata:

— Bugundan e‘tiboran Baho Valadga Sulton ul-ulamo deya xitob qilinglar! — deb buyuradilar. Tong otgach, ayni tushni ko‘rgan olimlar to‘g‘ri Baho Valadning madrasasiga yo‘l olishadi. Ular hali og‘iz ochmasdanoq, Baho Valad ularning ko‘rgan tushlarini miridan sirigacha aytib beradi. Olimlar:

— Olloh va Rasululloh shohiddir, biz ham shohidmizki, sen Sulton ul-ulamosan, bugundan e‘tiboran xuddi shu nom bilan tanilgaysan, — deb aytishadi.

Shunday qilib, u xalq orasida Sulton ul-ulamo sifati bilan keng tanila boshlaydi. Dastlab Faxriddin Roziy kabi uni xushlamagan, shuhratini qizg‘angan ba‘zi olimlarning e‘tiroziga qaramay, bu unvon abadiyatga qadar uning nomi sifatida yashab qoladi.

Baho Valad voyaga yetgach, Balx amiri Rukniddinning qizi Mo‘minaga uylanadi. Bir yil o‘tib, ularning oilasida farzand dunyoga keladi. Baho Valad bolaga A‘loiddin Muhammad deya ism qo‘yadi. So‘ngra ikkinchi farzand tug‘iladi. Yuzida ilohiy nur porlagan ushbu o‘g‘liga otaning mehri bo‘lakcha edi. Endigina tug‘ilgan chaqaloqni Mo‘minaning quchog‘idan olgan Sulton ul-ulamo: — Muborak bo‘lsin, Muhammad Jaloliddin! Bu bola boshqa bolalarga o‘xshamaydi, uni yaxshi parvarish qil, Mo‘mina, — deydi. Shu tariqa bolaga Muhammad Jaloliddin deya ism qo‘yiladi.

Yosh Jaloliddin ana shunday ulug‘ bir olimning ikkinchi o‘g‘li o‘laroq, onasi va yetuk muridlarning tarbiyasi ostida ulg‘aya boshlaydi.

## BALXDAGI FIKRIY TAFOVUTLAR

Sulton ul-ulamo Baho Valadning ikki yaqin do'sti va muridi bo'lmish samarqandlik Sharafuddin Lolo va termizlik Sayid Burhoniddin yosh Jaloliddinning tarbiyasini o'z zimmalariga olishadi. Bola besh yoshga to'lishi bilanoq, unga o'qish va yozishni o'rgatishadi. Hali yosh bo'lishiga qaramay, o'tkir zakovati, nodir iste'dodi bilan Jaloliddin barchaning diqqatini o'ziga jalb eta boshlaydi. Ba'zan otasining madrasasiga borib, odob bilan bir chekkada o'tirar, suhbat asnosida aytilgan so'zlarni jo'shib tinglardi. Butun borlig'i bilan eshitgan har so'z borasida mulohaza yuritib turib, ba'zan uning kutilmaganda o'rta tashlagan kattalarga xos savollari yon-atrofdagilarni hayratga solardi.

Kunlardan bir kun yosh Jaloliddin va akasi qo'shni bolalar bilan tomda loy o'ynarkan, bir bola Jaloliddinga:

— Kel, bu tomdan narigi tomga hatlaymiz... — deydi. Jaloliddin kulib:

— Yo'q, bu ish mushuk va itlar osonlik bilan qila oladigan jo'n ish. Agar kuchingiz yetsa, tomdan tomga emas, keling, ko'klarga uchaylik, olamlarni sayr qilaylik... — deya javob beradi.

Aytishlariga qaraganda, yosh Mavlono bu so'zlarni aytgach, nogoh ko'kka sakragan, qo'shni bolalar qo'rquvdan uvvos solib baqirishgan ekan. Ma'lum bo'ladiki, hali bolaligidanoq uning hayajoni ichiga sig'mayotgan edi.

Baho Valadning va'z va saboqlari yon-atrofga juda katta ta'sir ko'rsatib, tinglaganlarni tobora rom etmoqda, bu saboqlar talabalar tomonidan yozib olinib, "Maorif" nomi ostida uch jildga to'planmoqda edi. Aytilgan gaplar ba'zan asossiz va vasvasali ilmlar bilan shug'ullangan faylasuflarga qattiq tegib, ular xalqning oldida shafqatsiz tanqid ostida qolmoqda edilar. Qolaversa, ayni kunlarda so'fiylar bilan faylasuflar o'rtasida dunyoqarash borasida anchagina ziddiyat paydo bo'lgandi. Balxning Faxriddin Roziy va Sulton Muhammad Takish Xorazmshoh kabi ba'zi yetakchi faylasuflari yunon falsafasiga asoslangan holda, aqlga tayanadigan idrok ta'si-

ri ostida edilar. So‘fiylar esa haqiqatga faqatgina ilohiy jazava bilan erishish mumkinligini, ya‘ni ruh riyozat vositasida poklanishi, nafs o‘ldirilishi lozimligini ilgari surmoqda edilar.

Bu ikki farqli idrok, tabiiyki, Baho Valad bilan Faxriddin Roziyni o‘zaro raqibga aylantirgandi. Fursat topildi deguncha, ular birbirlariga tig‘dek botguvchi so‘zlar aytib qolardilar. Bir va‘zida Baho Valad tag‘in jo‘shib bunday deydi:

— Ey, Faxri Roziy! Ey, Xorazmshoh! Ey, ularning tarafdorlari! Sizlar o‘z huzur-halovatingizni o‘ylab, qalb va ilohiy kashfni bir chekkaga surgan, zulmatda qolgan kishilarsiz. Ortidan yelib-yurguran xom xayollaringiz sizni nafsning quliga aylantirgan. Qalb ko‘zingiz yopiq bo‘lgani sababli haqiqatni ko‘ra olmaysiz. Shuning uchundirki, vasvasa va bo‘sh xayollaringiz birla o‘zingizga hamda boshqalarga ziyon qilmoqdasiz...

Bu beayov so‘zlar darhol butun Balxga tarqalib, saroyga yetib boradi. Faxriddin Roziy va yaqinlari Sultonga shunday arz qilishadi:

— Baho Valad Balx xalqini butunlay o‘ziga tobe qildi. Bizga va sizga sira nazar-e‘tibor bermaganidek, ochiqdan ochiq yomonlashga tushdi. Qo‘rqamizki, bir kun saltanat taxtiga ham qasd qilgay. Chora ko‘rmoq lozim...

Sulton Muhammad Xorazmshoh bu so‘zlarni eshitib, nihoyatda mutaassir bo‘ldi. Uning Baho Valadga nisbatan juda katta hurmati bor edi. Garchi Baho Valadning saltanat taxtiga ko‘z tikish niyati yo‘qligini bilsa-da, biroq ko‘ngliga qo‘l solib ko‘rishni ma‘qul topdi va sodiq odami orqali unga shunday xabar yo‘lladi:

— Shayximiz agar Balx o‘lkasini qabul qilsalar, bugundan e‘tiboran podshohlik ham, o‘lkalar-u askarlar ham U kishiniki bo‘lgay. Menga esa boshqa bir o‘lkaga ketishga ruxsat bergaylar. Chunki bir o‘lkada ikki podshoh bo‘lishi joiz emas.

Ushbu taklifga Baho Valad shunday javob qaytaradi:

— Balx Sultoniga salom ayting. Bu dunyoning foniy o‘lkalari, askarlari, xazinalari, taxtlari podshohlarga yarashgay. Biz darveshmiz, bizga mamlakat va saltanat munosib emas. Biz ko‘ngil xushligi ila safar qilaylik-da, Sulton o‘z yaqinlari va do‘stlari birla yuzma-yuz qolsin.

Darhaqiqat, ayni damlarda Chingizxon boshchiligidagi mo'g'ul qo'shinlari Balx chegaralariga qadar yetib kelib, ishg'ol etgan har bir o'lkani shafqatsizlarcha talon-toroj qilmoqda hamda yoqib, kulini ko'kka sovurmoqda edi.

Misli ko'rilmagan bunday yovuzliklarning dahshatli achchiq xabarlari yetib kelgan sari Xuroson o'lkalarida huzur-halovat yo'qolib, umidsiz xalq to'da-to'da bo'lib, g'arb mamlakatlari: Eron, Iroq hamda "Diyori Rum" deb atalgan Onado'liga ko'cha boshlagan edi. Baho Valad, bir tomondan, mamlakatda hukm surgan ushbu notinch vaziyat taqozosi, ikkinchi tomondan, Xorazmshohlar saroyida keyingi paytlarda uning shuhrati va ilmiga nisbatan hasad va ig'voning avj olgani tufayli Balxga aslo qaytmaslik niyatida ushbu shaharni tark etishga qaror qilgandi. Bu qarorini Sultonning ishorali so'zlari bois yanada tezlashtirgandi. Sultonlarga doimo xalqqa adolatli hukmfarmolik qilishni tavsiya qilgan, biroq davlatdan hatto bir chaqa ham olmay, bergan fatvolaridan kelgan ozgina mablag' evaziga qanoat qilib kun kechirgan Baho Valad biror-bir fitna chiqishiga yo'l qo'ymay, Balxdan uzoqlashishni ma'qul deb bilgandi. Bu qarorini do'stlariga:

— Safarga hozirlangaymiz. Bu biz uchun xayrli bo'lgay, — deya ma'lum qiladi. Baho Valadning Balxni tark etish xabari darhol hamma yoqqa tarqalgandi. Uning madrasasi oldida to'planagan xalq yolg'iz qoldirib ketmasligi uchun yolvorib, ko'z yosh to'kmoqda edi. Bu yolvorishlar, dod-u faryodlar Baho Valadni qaroridan qaytarolmadi. Ayni damda xalq o'rtasida tushunmovchilik paydo bo'lib, hatto bu ko'chishga sababchi bo'lganlarga qarshi isyon ko'tarilishiga oz qolgandi. Faxriddin Roziy va uning yaqinlari ko'chaga chiqa olmay, qo'rquvdan titramoqda edilar. Ko'ch kunlari yaqinlashgan sari xalq g'alayon yoqasiga kelib qolayozgandi.

Ahvol tobora keskin tus olayotganidan xavotirga tushgan Sulton vaziri bilan birga Baho Valadni ziyorat qilib, uzrxohlik ko'rsatib, qaroridan voz kechishini va xalqni tinchlantirishini so'raydi. Sulton Baho Valadning ko'chish qarori qat'iy ekanligini bilgach, hech bo'lmasa, xalq o'rtasida katta namoyish — tartibsizlik sodir bo'lmasligi uchun yashirincha ko'chishni iltimos qiladi.

O'zi tufayli birovning ranjishini istamagan Baho Valad juma kuni erta tongda, bomdod namozidan so'ng kichik bir karvonini hozirlatib, kitoblarini va ba'zi lozim bo'lgan narsalarini, oilasi hamda o'ziga yaqin muridlarini yoniga olib yo'lga tushadi. Balxda faqatgina bolaligida enagalik qilgan keksa Nasiba xotin qoladi, xolos. Bu paytda o'g'li Mavlono Jaloliddin bir qancha manbalarda qayd etilganidek, uch yoki to'rt yoshlardagi bolakay emas, balki ancha ulg'aygan, ya'ni o'n to'rt yoshlardagi dono o'spirin sifatida otasiga hamrohlik qilmoqda edi.

Balxning ko'kka bo'y cho'zib turgan minoralari ortda qolib, karvon janubga tomon yo'l oladi.

Bu shunday bir karvon ediki, unda oltin, kumush yoxud Hind durlari-yu Chin ipagi kabi dunyo boyliklari emas, balki olam-olam kitoblar ortilgan bo'lib, muhofizi Tangri, qilichi iymon, rahnamosi ilm edi. Karvon tog'lar, qirlar osha ilgarilab bormoqda edi.

Baho Valad Balxdan chiqib ketarkan, ushbu oq soqolli, nuroniy yuzli keksaning etagiga yopishib qo'llaridan o'payotgan, xayr va duosini niyoz etayotgan olomonga qarata aytgan so'nggi so'zi shunday bo'lgandi:

— Men endi ketmoqdaman. Mening ortimdan dunyoga tariqdek sochilgan mo'g'ul askarlari Xuroson o'lkasini zabt etajak, Balx aholisiga, ming afsuskim, o'limning achchiq sharbatini tottirajak...

Darhaqiqat, Baho Valadning Balxdan bu ko'chishidan ozgina o'tmay, 1214-yilda Balx Chingizxonning yovuz qo'shini tomonidan qamal qilinib, shahar talon-toroj etildi, o't qo'yildi, begunoh xalqi shafqatsizlarcha qilichdan o'tkazildi...

Baho Valad bu tahlikani oldindan bilgan, endilikda o'z fikrlarini xalqqa bemalol ayta oladigan, xavotirsiz bir makon izlamoqda edi.

Karvon uzoq yo'l yurib, qayerda qo'nim topsa, o'sha yerning diniy va dunyoviy buyuklari peshvoz chiqib, Baho Valad va sheriklarini uylariga, saroylariga taklif etmoqda edilar. Biroq Baho Valad o'ziga ko'rsatilgan bunday cheksiz hurmat va samimiyatga minnatdorchilik bildirgan holda madrasadan boshqa biror yerga qo'nmay bormoqda edi.

Bu yo'lning so'ngi qayerga borarkin? Karvondagilar hech narsa so'ramas, tavakkal qilib, Baho Valad ishorat qilgan manzillarga talpinmoqda edi. Ilk katta manzil Nishopur bo'ldi.

O‘z davrining ilg‘or ilm va madaniyat markazi hisoblangan Nishopurda buyuk mutasavvuf Farididdin Attor yashardi.

Buyuk donishmand Farididdin Attor Bahouddin Valadni kutmoqda, Sulton ul-ulamo qaysi shaharga yetib bormasin, Attor bundan xabardor edi. Nihoyat, Nishopurda ikki Islom qutbi bir-birlari bilan quchoqlashib ko‘rishdilar. Bir necha kun davomida uzoq-uzoq suhbatga mashg‘ul bo‘ldilar. Hikmat injulari sochilgan ushbu ilmiy suhbatlarda o‘n to‘rt yoshli Jaloliddin ham qatnashmoqda edi. Bir suhbat asnosida Shayx Attor Baho Valadga:

— O‘ylaymanki, sizning bu o‘g‘lingiz yaqin zamonda olam ichra oshufta ko‘ngillarga otash solgay, — deydi.

Shayx Farididdin Attor hali o‘spirin, biroq yoshiga qaraganda ancha yetuk Jaloliddinni taqdirlab, ayni kunlarda yozgan “Asrornoma” asarining bir nusxasini unga sovg‘a qiladi.

Keyinchalik Mavlono Jaloliddin o‘zining mashhur “Masnaviyi ma‘naviy” asarida ushbu asardan keng foydalanib, o‘rni kelganda Shayx Attorni bot-bot alqab o‘tadi.

Nishopurda necha kun qolganlari ma‘lum emas, biroq ko‘p o‘tmay, karvon yana yo‘lga tushdi. Shayx Attor yoshli ko‘zlar bilan karvonni kuzatarkan, otasining ortidan yurgan Mavlonoga ishora qilib:

— Vo hayrato! Bir irmoq ulkan bir ummonni ergashtirib bormoqda! — deydi. Bu so‘zlar zamirida bir irmoq vositasida ulkan ummonning yuzaga kelishi ifodalanganini ko‘ramiz. Qolaversa, Bahouddin Valadning o‘zi alohida bir ummon edi.

Karvon Bag‘dod tomon yo‘l oladi. Bir necha kun o‘tib, nihoyat uzoqdan Bag‘dodning yuksak qubba va minoralari ko‘rina boshlaydi. Shaharning muhofizlari ot surib kelib, karvonni to‘xtatishadi. Oralaridan bir muhofiz:

— Qayerdan kelib, qayerga ketyapsizlar? — deb so‘raydi. Baho Valad boshini chodirdan chiqarib, shunday javob beradi:

— Tangridan keldik, Tangriga borgaymiz. Tangridan boshqa kimsada quvvat va qudrat yo‘qdirki, bizni to‘xtatsa. Biz lomakondan<sup>1</sup> kelib, lomakonga ketmoqdamiz.

<sup>1</sup> **Lomakon** — yo‘qlik, makonsizlik.

Bu javob arab muhofizlarini hayratga soladi. To'rt mil<sup>1</sup> ortga qaytib, ahvolni va eshitganlarini xalifaga ma'lum qilishadi. Xalifa Bag'dodning taniqli olimlaridan Shayx Shahobiddin Suhravardiyi saroyiga chorlab, ushbu so'zlarning hikmatini so'raydi. Suhravardiy:

— Bu so'zlarni faqatgina balxlik Bahouddin Valad ayta oladi, chunki bu asrda undan boshqa hech kim bundoq so'zni ayta olmagay, — deya javob beradi va darhol muridlari bilan birga Baho Valadni kutib olish uchun shahar tashqarisiga yo'l oladi. Uchrashganlarida Suhravardiy Baho Valadning tizzasidan quchib, o'z uyiga taklif etadi. Baho Valad:

— Imomlarga eng munosibi madrasadir, — deya taklifni qabul qilmay, bir madrasadan qo'nim topadi. Barcha uning xizmatiga yugurar, ziyoratchilarning oxiri ko'rinmasdi.

Juma kunlarining birida butun Bag'dod xalqi xalifa bilan birga jome masjidini to'ldirib, yelkama-yelka namoz o'qishdi. Minbarga chiqqan Bahouddin Valad xalqning ko'z yoshlari ostida soatlarcha va'z o'qib, hikmatli so'zlari bilan jamoani jo'shga keltirdi.

Deydilarki, Sulton ul-ulamo Bag'dodga kelgan kun xalifa sovg'a tariqasida la'li to'la uch ming tilla jo'natgan ekan, Baho Valad:

— Xalifaning moli harom va shubhalidir. Zavq va kayf-u safo-ga berilgan odamning sovg'asini qabul qila olmayman, — deya bu hadyani ortga qaytaradi. Juma va'zida esa xalifaga nisbatan og'ir so'zlar so'ylaydi:

— Mo'g'ul qo'shinlari yon-atrofnı yoqib, yo'q qilib kelmoqda. Sizni ham iskanjaga olib o'ldirishadi. Hali vaqt g'animatda hozirlik ko'ring, ko'ngil ko'zidan g'aflat pardasini ko'tarib, Tangriga tavba-tazarru qilish payida bo'ling, — deydi.

Haqiqatan ham ko'p vaqt o'tmay, Chingizxon qo'shinlari tomonidan Balx ishg'ol qilingani, xalqi qilichdan o'tkazilib, kutubxonalar yoqilgani haqidagi xabar Bag'dodga yetib keladi.

Balxdan ko'chishning sababi yana bir bor o'z tasdig'ini top-gandi. Ma'lum bir muddat o'tib, Bag'dod xalqi ham shunday balo-ga uchraydi, xalifa mo'g'ullar qo'lida jon beradi.

Baho Valad Bag'dodda ham ko'p qolmadi. Makkaga, Bay-tullohga borib ehromga kirish uchun yo'lga tushdi.

<sup>1</sup> Mil — masofa o'lchov birligi; 1mil — 1848 metr



## “BIZNING QO‘NALG‘AMIZ QO‘NYO SHAHRIDIR”

Karvon og‘ir-og‘ir Kufaga, u yerdan Makka tomon harakat qilmoqda edi. Har mo‘minga umri mobaynida bir bora farz bo‘lgan Haj qarzi ado etilishi lozim edi. Baho Valad bilan Mavlono ota-o‘g‘il Makkada bo‘lib, chuqur bir xushu<sup>1</sup> ichra Ka‘bani tavof qilib, takror yo‘lga tushgan edilar. Endigi yo‘l shimol sari edi.

Makkadan Madinaga yo‘l olib, bu yerda Rasululloh (s.a.v)ning maqbarasini ziyorat qilgach, nihoyat, Quddusga, undan tag‘in oylarcha yo‘l bosib, jazirama cho‘llarni sabr-toqat bilan kechib o‘tib, Shomga yetib keladilar.

Shom xalqi Baho Valadni shahar tashqarisida kutib olib, shu yerda muqim yashab qolishini istashadi. Baho Valad:

— Tangri bizga Rum (Onado‘li) tuproqlari sari yo‘l olishimizni buyurmoqda. Bizning qo‘nalg‘amiz Qo‘nyo shahridir, — deya rozi bo‘lmaydi.

Karvon Onado‘liga, Saljuqiylar davlati hududlari tomon yo‘l oladi. Halab<sup>2</sup>ga, u yerdan Malatiyo<sup>3</sup> ga kechiladi. Hech bir qo‘noqda bir yoki ikki kundan ortiq turilmasdi. Karvon ayni paytda manguchaklarning qo‘li ostida bo‘lgan Erzinjon<sup>4</sup>ga yo‘naladi. Erzinjon va manguchaklarning shuhratli sultoni Faxriddin Bahromshoh va zavjasi Ismatiy Xotun Baho Valad o‘z diyorlari sari kelayotganini eshitib, uni kutib olish uchun Erzinjon yaqinidagi Oqshahar qasabasiga qadar keldilar. Baho Valad bu yerda ham madrasadan qo‘nim topdi. So‘ng yana yo‘lga tushib, Sivas, Qaysari, Nig‘da yo‘li orqali Larenda<sup>5</sup> (Qahramon shahar)ga yetib keldilar...

Baho Valadning kelayotgani haqidagi xabar Larendaga bir necha kun oldin yetib borgandi. Saljuqiylar amiri va Larenda shahri voliysi Amir Musa bey bir qancha yuksak martabali akobirlari bi-

<sup>1</sup> **Xushu** — o‘zini past tutib yolvorish.

<sup>2</sup> **Halab** — Suriyadagi shahar nomi.

<sup>3</sup> **Malatiyo** — Onado‘lidagi shahar nomi.

<sup>4</sup> **Erzinjon** — Onado‘lidagi shahar nomi.

<sup>5</sup> **Sivas, Qaysari, Nig‘da, Larenda** — Onado‘lidagi shahar nomlari.

lan yayov shahar tashqarisiga yo‘l olishadi va Baho Valadni kutib olib, saroyga da‘vat etishadi.

Hech bir shaharda, hech kimsaga yuk bo‘lishni istamagan va madrasadan boshqa joyga qo‘nmagan Baho Valad bu yerda ham Amir Musa beyning taklifini rad etadi va bironta madrasadan joy berishlarini so‘raydi. Uning bu istagini bajonidil qabul qilgan Musa bey darhol madrasa qurilishiga amr beradi. Shahar o‘rtasidan munosib maydon tanlanib, qisqa fursatda yangi madrasa qurib bitkaziladi. Oilasi va muridlarini olib, yangi madrasaga ko‘chib o‘tishi bilanoq Baho Valad saboq va va‘zlarini boshlab yuboradi.

Chunonchi, bu paytda Jaloliddin yosh o‘spirin olim sifatida otasining darslarida ishtirok etmoqda, kecha-kunduz o‘qib, izlanmoqda edi.

Baho Valad Balx shahridan ko‘charkan, Hazratga hamrohlik etgan xos muridlaridan samarqandlik Sharafuddin Loloning Gavhar Xotun ismli axloq-odobli hamda go‘zallikda tengsiz bir qizi bor edi. Baho Valad sadoqatli murididan ushbu qizni o‘g‘li Jaloliddin uchun so‘rganida kekxa Lolo buni o‘zi uchun sharaf deb bilib, darhol rozi bo‘ldi. 1225-yil bahorida muxtasar bir to‘y bilan har ikkalasining nikohi o‘qildi. Ushbu baxtli voqeadan so‘ng ko‘p vaqt o‘tmay Baho Valadning zavjasi Mo‘mina Xotun, uning ortidan esa Mavlononing akasi Muhammad A‘loiddin vafot etadi. Shunday qilib, Baho Valad qisqa muddat ichida ikki aziz kishisini Qahramon shahar tuprog‘iga topshiradi...

Bu ikki yo‘qotish Baho Valadni qattiq qayg‘uga soladi. Ko‘p o‘tmay Sharafuddin Loloning xotini va Mavlononing enagasi ham bu ikki mozor yonidan joy oladi.

Olishni bilgan Tangri berishni ham biladi. Xuddi shu kunlarda Mavlononing ikki farzandi: dastlab Sulton Valad, so‘ngra esa ikkinchi o‘g‘li A‘loiddin Chalabiy tasalli o‘laroq dunyoga keladi. Mavlono birinchi o‘g‘liga otasining, ikkinchi o‘g‘liga yaxshi ko‘rgan akasining ismlarini qo‘yadi. Bu ikki suyukli go‘dak qayg‘ularni biroz bo‘lsada unuttirgandi. Ular Larenda bog‘larida kezib o‘ynab, katta bobolari Baho Valadning shafqat to‘la quchog‘ida ulg‘ayishmoqda edi.

Baho Valadning shuhrati tobora ortarkan, madrasasi ko'ngil sohiblari bilan to'lib-toshmoqda edi...

Bu davrda Onado'li Saljuqiylar davlati hukmronligi ostida bo'lib, eng yorug', dorilomon kunlarni boshidan kechirmoqda edi. 1219-yilda akasi Sulton Kaykovus I ning o'rni o'tirgan A'loiddin Kayqubod I yaxshigina harbiy iqtidorga ega bo'lganidek, din va ilmni ham juda hurmat qiladigan qat'iyatli hukmdor edi. Davlat poytaxti hisoblangan Qo'nyo san'at asarlari-yu ilm muassasalari bilan boyib, Saljuqiylar saroy va madrasalari ilm ahli bilan to'lib-toshmoqda edi.

A'loiddin Kayqubod I Qo'nyodan so'ng Qaysari, Sivas kabi bir qancha shaharlarni mustahkam istehkom qo'rg'oni bilan o'rab oladi. U Sharqda paydo bo'lgan mo'g'ul xavfiga qarshi chora o'laroq, janubda muhim bandargoh hisoblangan. Kalonoros qal'asini fath etgach, nomini "A'loiya" qo'ygandi. U, bir tomondan, davlat hududlarini kengaytirib, o'z muhofazasi ostiga olarkan, ikkinchi tomondan, o'z davrining mashhur naqqosh va rassomlari bezak berayotgan yozgi va qishki saroylar barpo ettirmoqda edi. Shuningdek, A'loiddin Kayqubod I Beyshahar ko'lining g'arbiy qirg'oqlarida qurdirgan Qubodobod hamda Qaysari yaqinlaridagi Qubodiya yozlik saroylaridan tashqari A'loiyada qishki saroy qurdirgandi.

Bu davrlarda din va mazhab masalalarida yuzaga kelgan nizo va ixtiloflar, shuningdek, mo'g'ul bosqinchiligi xavfi tufayli huzurhalovatning yo'qolishi xalqning tinchini buzib, dunyodan sovutgandi. Sharqdan Onado'liga tomon ko'chishlar tobora avj olmoqda edi. Ana shunday parokandalik hukm surgan bir paytda tasavvuf g'oyalarining Onado'lida ildiz otib, keng yoyilishiga qulay vaziyat tug'ilgandi. Xalqning tasavvufga bo'lgan bu xayrixohligi ba'zi zohid murshidlarning e'tiroziga qaramay, sulton, vazir va tuman beklarini ham ushbu ishonch sari yetaklamoqda edi.

Sulton A'loiddin Kayqubod taxtga o'tirgach, mutasavvuf Shayx Shahobiddin Suhravardiy abbosiylar xalifasi tomonidan Qo'nyoga yo'llanib, podshohga ot va imoma jo'natiladi.

Darhaqiqat, "Mirshod ul-Ibod" asari muallifi mutasavvuf Najmiddin Doya hamda Muhiddin Arabiy, Sadridin Qo'nyoviy kabi

olimlar Qo‘nyoda saroy va xalqdan katta e‘tibor ko‘rmoqda edilar. Qo‘nyo ilm va madaniyat markazi o‘laroq, olim, shayx, darvesh-larga eshiklarini keng ochgandi. Qayerda olim, shayx, shoir, san‘atkor ismi quloqqa chalinsa, uning Qo‘nyoga chaqirilishi ta-biiy edi. Xullas, bunday holatda Sulton ul-ulamo Bahouddin Valad kabi xalq tomonidan sevilib, hurmat-ehtirom ko‘rsatilgan olimning Qo‘nyoga da‘vat etilmasligi mumkin emasdi.

Larendada beklikdan bo‘lmish Amir Muso uning xizmatida edi. Ushbu pok qalbli inson Baho Valad darslarini cheksiz hayajon bilan tinglar, Hazratning so‘zlaridagi chuqur ma‘no nash‘-u namosi ichra aql-u hushidan ayrilmoqda edi.

Ne ajabki, Baho Valadni ko‘ra olmaydiganlar ham bor edi. Fisq-u fasodni o‘ziga amal qilib olgan bir guruh kimsalar Amir Musoni e‘tibordan tushirish maqsadida Sultonga shunday xabar yetkazishadi:

— Balxlik Baho Valad Rum diyoriga kelib, bu viloyatni valiylik ziyosi birla nurafshon etdi. Zamonamizning qit‘alari aro hukm yuritgan podshohimiz esa uning kelishidan bexabar qoldi. Chunki Sulton hazratlarining Larendadagi beklaridan bo‘lmish Amir Muso Baho Valadning yo‘lini to‘sib, Larendada qolishga da‘vat etgan hamda madrasa qurdirib, uning ixtiyoriga topshirgan. Amir Muso bunday qilishga qanday jur‘at topdi? Sultonimiz bunga ne derkinlar?

## KARVON YO‘LI QO‘NYO SARI

Sulton A‘loiddin Kayqubod bu xabarni eshitib, Amir Musodan juda xafa bo‘ladi. Zero, Sulton o‘zining eng sodiq odamlaridan deb bilgan Amir Muso tomonidan bunday nomaqbul xatti-harakatga yo‘l qo‘yilishi sira kutilmagan hol edi. Sulton xos odamlari orqali qattiq so‘zlar bitilgan shunday xabar yo‘llaydi:

— U ulug‘ zotning holidan biroz bo‘lsa-da, bizga ma‘lum qilmading. Faromush va g‘aflatda qolib nega bunday qilding?

Amir Muso nima qilishini bilmay, talmovsiragan ko‘yi Baho Valadning etagiga yopishib, Sulton jo‘natgan xabarni ma‘lum qildi.

Baho Valad:

— O‘rningdan tur, hech ham xavotirlanma. Qo‘nyoga borib, Sultonning huzuriga kir va bul voqea qanday bo‘lsa, shundayicha anglat, — deya taskin beradi.

Amir Muso Qo‘nyoga borishi bilanoq, to‘g‘ri saroyga yo‘l oladi va Sultonga Baho Valad o‘z istagi bilan yetti yildan buyon Larendada yashayotganini, bu ishda o‘zining hech qanday aybi yo‘qligini batafsil tushuntiradi. Uning bu so‘zlari haq ekanligiga ishonch hosil qilgach, Sulton:

— Agar Baho Valad bizning poytaxtimizga kelib, Qo‘nyo shahrini o‘z istiqomatgohi aylasa, bundan juda xursand bo‘lgayman... Quli va muridi bo‘lib, izmida yurgayman. Qo‘nyo shahri Sultoni va amirlari Uni kutmoqdadir, — deydi.

Amir Musoga sovg‘a-salomlar berildi va u takror Larendaga jo‘natildi.

Baho Valad Sultonning da‘vatini ilohiy amr bilib, ko‘p ham o‘ylab o‘tirmay, darhol yo‘l hozirliklari ko‘rishni buyurdi.

1228-yilning iliq bahor kuni edi. Baho Valad Larendada tuproqda yotgan azizlarining mozorlarini tag‘in bir bor ziyorat qilib, ruhlariga fotihalar o‘qiydi. Bu galgi safar chog‘ida uning quchog‘ida Sulton Valad va A‘loiddin Chalabiy degan ikki nevarasi bor edi. yetti yillik sarson-sargardonlikdan so‘ng karvon tag‘in so‘nggi manzil tomon asta-sekin ilgarilamoqda, yosh Mavlon o‘tasining ortidan ergashib bormoqda edi.

Qo‘nyo shahrida darhol yashindek bir xabar tarqaldi: balxlik buyuk olim Baho Valad Qo‘nyoga, qadrdon shahriga kelmoqda...

Ayni kunlarda Qo‘nyo saroyida ham favqulodda holat hukm surmoqda edi. Shaharning barcha taniqli olimlari, shayxlari, qozilari saroyga da‘vat etilib, podshoh boshchiligida butun Qo‘nyo ahli Baho Valadni shahar tashqarisida kutib olishga tadorik ko‘rmoqda edi. Xalq guras-guras bo‘lib shahar tashqarisiga, Qahramon yo‘li ustidagi Filobod adirligi tomon yo‘l olgan edi.

Nihoyat, uzoqdan besh-o‘n kishidan iborat kichik karvon ko‘zga tashlandi. Oldinda, ot ustida Baho Valad, ortidan Mavlono Jaloliddin, uning ortidan esa ayollar, darveshlar kelishmoqda edi. Eng ortdagi tuyalarga kitoblar ortilgandi. Karvon shaharga

yaqinlashgan bir paytda Sulton A'loiddin otidan tushdi va yugurib borib Baho Valad otining tizginini tutdi. Sulton A'loiddin Baho Valadning qo'lini o'pmoqchi bo'ldi, biroq qo'l o'rniga yog'och hassa uzatilganda, Sulton yonidagilarning hayratli nigohlari ostida hassani hurmat bilan o'pdi. Inchunun, ma'naviyat Sultoni dunyo Sultoniga ilk saboq berib, uning dunyoviy g'ururini sindirgandi.

Manzara juda hayratomuz edi: keskir qilichi bilan qator o'lkalarni zabt etib, g'animlarini tiz cho'ktirgan Onado'li sultoni A'loiddin Kayqubod I Baho Valadning oti jilovini tutib odimlamoqda, ortda Baho Valad ot ustida o'ng va so'l tomonga salomlar berib bormoqda edi. Biri iqlimlar, ikkinchisi olimlar sultoni edi.

Sulton otning tizginini saroy tomon burarkan, Baho Valad:

— Ey qudratli sulton! Maqsadingizni anglamoqdaman. Imomlarga madrasa, shayxlarga xonaqoh, amirlarga saroy, tujjor-u g'ariblarga karvonsaroy munosibdir. Izn bering-da, biz madrasada qolaylik, — dedi... Sulton Uning bu istagini qabul qildi. Ular shaharning eng ulkan madrasasi bo'lmish Oltin Abada mehmon qilindilar.

Madrasada yaxshi kutib olinib, cheksiz izzat-ikrom ko'rgan esalar-da, Baho Valad saroydan yuborilgan sovg'alarni qabul qilmay:

— Biz dunyo moliga ko'z tikkan emasmiz. Sulton zahmatga qolib, bizga mol-u dunyo jo'natmasinlar, — deya ortga qaytardi.

Zotan, Baho Valad hech kimdan hech vaqo olmas, hatto jo'natilgan sovg'alarning halolligiga shubha bilan qarab, aslo qo'l urmasdi. Faqat bergan yozma fatvolari evaziga oz miqdorda xizmat haqqi olardi xolos...

Butun oila Qo'nyo shahri o'rtasidagi Oltin Aba madrasasidan qo'nim topdi. Ko'p o'tmay, Sulton ul-ulamo mazkur madrasada saboq bera boshladi. Xurosondan "Diyori Rum"ga ko'chgan ushbu buyuk so'fiy Baho Valad Olloh sevgisini ishq ilmi bilib, ayni tushunchani yovuzlikka qarshi yagona qurol deb atardi:

— Ko'ngil bitigidan bir sahifa yodlamoqqa g'ayrat ko'rsatki, uning ma'nosi abadiyatga qadar ruhingda gullab-yashnasin. O'lgandan so'ng sening qo'lingdan tutguvchi narsa ishq ilmidir.

Baho Valad tariqat asoschisi emas edi. Uning yo'li Haq yo'li edi. Butun borlig'i bilan shariatga rioya qilar, botin ilmi va Haq

sevgisini asos bilib, falsafani hazm eta olmasdi. Kuchli quvvayi hofizasi, keng dunyoqarashi, jozib nutqi bilan jamoani rom etib, o'ziga tobe qilardi.

Bir necha kun o'tib, Sul-ton A'loiddin Kayqubod Saljuqiylar saroyida katta bir marosim uyush tirib, unda Baho Valad hamda shaharning barcha ta niqli olimlari-yu futuvvat<sup>1</sup> arboblarini da'vat etadi.

Sul-ton A'loiddin Baho Valadni saroy eshigi oldida kutib olib, ichkariga boshladi. Barcha Baho Valadga salom berib, qo'llarini o'pdi. Shunda Sul-ton A'loiddin yuksak ovozda:

— Ey, din podshosi! O'ylab shunday qarorga keldim. Bugundan e'tiboran bobolarimdan meros qolgan bu taxtni sizga taqdim etmoqdaman. Siz sul-ton, men qulman. Zero, butun zohir va botin sul-tonligi siznikidir, — deya, hammaning oldida baho Valadga sal-tanat tojini uzatdi.

Baho Valad Sul-tonning ushbu so'zlarini diqqat bilan eshitgach:

— Ey, dunyo va oxirat mulkini qo'lga kiritishga erishgan malak sifatli mulk sohibi, muhtaram hukmdor! Taxtingizda rohat qilib o'tiravering. Biz ko'pdan beri dunyo mol-u mulkidan ko'z yumgan holda Tangriga qullik qilib, Uning amrlarini bajarishga intilmoqdamiz, — deya javob berdi.

Majlisga da'vat etilganlarning aksariyati bu so'zlarni eshitib, Baho Valadning xos muridiga aylandilar. Baho Valad garchi Oltin Aba madrasasiga o'r-nashgan bo'lsa-da, biroq bundan ko'ngli to'q emas edi. Madrasada boshqa mudarrislar ham istiqomat qilardi. Buning ustiga unga ajratilgan qism juda kichik edi. O'g'li Jalolid-din yigitlik yoshiga kirib, uylangan, bola-chaqali bo'lgandi. Shu-ningdek, ba'zi yo'qsil muridlar ham madrasaga joylashtirilgandi. Sultonga aytilsa, shubhasiz, darhol yangi bir madrasa qurdirardi, ammo bunday taklif Sul-ton yoki amirlari tomonidan o'rtaga tash-langani ma'qul edi. Albatta, buning uchun bir "zuhurot" sodir bo'lishi lozim edi. Shunday bo'ldi ham... Kunlardan bir kun Baho Valad Juma masjidi deb atalgan A'loiddin jome masjidida va'z o'qimoqda edi. Mahshar kabi liq to'la jome masjididagi maxsus joyda Sul-ton bilan birga amirlar ham o'ltirar edi. Baho Valad har

<sup>1</sup> **Futuvvat** — tasavvufda javonmardlik, saxovat, karam ko'rsatish.

oyatning nozil bo'lish sabablarini va uning tahqiqini butun nozikliklari va tafsiloti bilan tafsir etarkan, barcha jon qulog'i bilan tinglamoqda edi. Sultonning saroy a'yonlaridan Amir Badriddin Gavhartosh ham darsni tinglab, Baho Valadning fasohat to'la so'zlariga hayron qolib o'tirardi. Ayni damda uning ko'nglidan "Mashaalloh, Hazratning naqadar o'tkir zehni, quvvatli xotirasi bor, go'zal nutq irod etmoqda" — degan o'y kechardi.

## YANGI BIR MADRASA

Shu payt Baho Valad Qur'oni Karimdan bularni eshitgandek, minbardan hayqirdi:

— Amir Badriddin, Qur'oni Karimdan bir pora o'qi!

Amir Badriddin ushbu kutilmagan xitobdan seskanib tushdi, so'ng o'zini o'nglab, darhol xotirasiga kelgan porani o'qidi. Baho Valad o'qilgan ushbu poraning har oyatini alohida-alohida tafsir qildi. Hayratda qolgan Amir Badriddin va'z tugashi bilan Baho Valadning yoniga borib qo'llarini o'pdi. Shu kundan e'tiboran bu holning shukronasi o'laroq, Baho Valad va bolalari uchun shaharning eng go'zal joyi hisoblangan Sulton Ko'shki atrofida madrasa qurish ishlari boshlandi. Bir necha oy o'tib, madrasa inshootining qurilishi nihoyasiga yetgach, Baho Valad va o'g'li Jaloliddin yangi madrasaga ko'chib o'tdilar...

Sulton A'loiddin Kayqubod Baho Valad va o'g'li Jaloliddinga juda katta hurmat ko'rsatar, ba'zi muhim ishlarda ulardan maslahatlar olardi. Sulton shahar atrofini muhtasham qal'a bilan o'rab olgandi. Bir qal'aki, chekkalari tillakori yozuvlar, yon-atrofi marmar qavariqli turli surat va naqshlar bilan bezatilgandi. Onado'lining nurli quyoshi ostida porlagan bu qal'a shaharni ham dushmanidan, ham seldan himoya qilardi. Bir kun Baho Valad bilan birga qal'a atrofida kezarkan, Sulton:

— Ey Sulton ul-ulamo, qal'aning qurilishi haqida nima deysiz? — deya so'radi.

— Sel va dushman suvoriylariga qarshi juda mustahkam qal'a qurdirdingiz, bu tahsinga loyiq, ammo mazlumlarning oh-u



nolalariga qarshi nima barpo ettirdingiz? Siz adolat va ehson qal'asi qurishga, xayrli duolardan askarlar bunyod etishga g'ayrat ko'rsating!.. Chunki adolat va ehson qal'asi bu kabi minglar-cha cho'ng istehkomlardan yaxshiroqdir. Xalqning omonligi, dunyoning barqarorligi shundandir... — deb javob qildi Baho Valad.

Bu so'zlarni jon qulog'i bilan eshitgan Sulton A'loiddin Baho Valadning xayrli duolar qilishini istab, etagini ko'zlariga surtib, qo'llarini o'padi va minnatdorchilik tariqasida Qo'nyo qal'asi sharqidagi saroyning bog'ini Sulton ul-ulamoga nisor etadi.

Ancha vaqt o'tib, Baho Valad muridlari bilan shahar atrofini kezarkan, bu yerdagi kichik bir tepalikka ishora qilib:

— Mening va bolalarimning, avlodlarimning mozorlari shu yerda bo'lgay. Bundan keyin bu yer jon va ko'ngil bog'i, haqqa erishganlar maqomidir, — deydi. Ne ajabki, yillar o'tib, Baho Valad vafot etgach, xuddi shu yerda dafn etiladi. Mavlononing maqbarasi ham shu yerda qad ko'taradi...

Baho Valadning saboqlari, va'zlari va nasihatlari murid-u shogirdlari tomonidan qalamga olinib, "Ma'orif" nomi ostida uch jild holda tartib beriladi. Tag'in to'rtinchi bir jild bor ediki, bunda kundalik hayotiy muhim voqeliklar qayd etilgan xotira daftari hisoblanadi. Baho Valad o'z asarlarida faylasuflarni jiddiy tanqid ostiga oladi, ularga tanbeh tarzida shunday xitob qiladi:

— Siz qalb huzur-halovatidan voz kechib, turli shubha va vasasalarga tushmoqdasiz. Haqiqat sizga shoh tomingizdan ham yanada yaqin bo'lgani holda, bekorga talmovsirab turmoqdasiz. Sizning bu holingiz nihoyatda achinarlidir.

Boshqa bir o'rinda esa:

— Payg'ambarimizning yo'ldek to'g'ri bir yo'l ko'rmadim. U yo'q ekan, borliq ham yo'q edi. Na fikr, na his, na ashyo, na yulduz, na falsafa, na hikmat... U keldi-yu, Qur'oni Karim nozil bo'ldi va hamma narsa unda mujassam bo'ldi, — deydi.

Baho Valad haqiqat va Islom shariatini birlashtirib, eng avvalo, nafs degan tiyiqsiz jonivorni yenggan mutavoze inson hamda uzoqni ko'ra olgan yetuk mutasavvuf olim edi.

## BAHO VALAD BOQIY DUNYOGA KO'CHDI

Bahouddin Valad Qo'nyoga ko'chib kelgach, bor-yo'g'i ikki yil yashadi, xolos. Yoshi sakson beshdan oshib, keksalik zaif badaniga butun yuki bilan cho'kkandi. 1231-yilning qishida qo'qqisdan betob bo'lib yotib qoldi. Betobligining uchinchi kuni, ya'ni 12-yanvar juma, tushga yaqin Uning ruhi foniy olamni tark etdi.

Vafotining ertasi kuni janoza marosimida Sulton A'loiddin boshchiligida barcha umaro va ulamolalar hozir bo'lishdi. Yig'ilgan minglarcha xalq tobutni yelkama-yelka ko'tarib, Sulton tomonidan bir paytlar tortiq qilingan bog'ga olib borishdi. Saljuqiylar saroyida qirq kun motam tutilib, bu davr mobaynida Sulton ul-ulamo Baho Valadning xotiri uchun Sulton va amirlar otga minishmadi.

Ma'lum bir muddatdan so'ng mozorning toshi lavhi hozirlanib, unda shunday so'zlar bitildi:

“Olloh boqiydir. Bu yer ulug'imiz, mo'tabarimiz, din va shariat peshvosi, hikmat manbai, sunnatga qayta jon ato etgan, bid'atni ildizidan sug'urib otgan, aytganlariga amal qilingan, olimlar sultoni, sharq va g'arb muftiysi, musulmonlarning shayxi, balxlik Ahmad ibn Husayn ibn Muhammad yotgan joydir. Olloh Undan hamda o'tganlardan rozi bo'lsin. Olti yuz yigirma sakkizinchi yili Rabi ul-oxirning o'n sakkizinchisida, juma kuni peshin chog'i vafot etdi. Olloh rahmat aylasin”.

Bir yildan so'ng mozori uzra usti g'ishtli oddiygina maqbara barpo etildi. Saljuqiy vazirlaridan Muiniddin Sulaymon Parvona Mavlonoga Baho Valadning oddiy maqbarasi uzra ulkan bir maqbara va yuksak qubba tiklatmoqchi ekanligini ma'lum qiladi. Uning ushbu istagini eshitgan Mavlonon shunday savol beradi:

— Shu koinotni quchgan ko'k qubbasidan yanada yaxshisini, yanada buyugini barpo eta olasizmi?

— Yo'q.

— U holda yangisini qurishga zahmat chekmang.

O'rni kelganda shuni ham aytib o'taylik, Mavlononning vafotidan so'ng ancha vaqt o'tib, Qonuniy Sulton Sulaymon davrida uning daxmasi ustidagi katta taxta qoplamali sandiq otasining dax-

masi ustiga ko'chiriladi. Mavlononing daxmasi ustiga esa nisbatan kichikroq marmar va usti po'shidali alohida taxta sandiq o'rnatiladi. Ziyoratchilar tomonidan "O'g'lining ilmiga, buyukligiga hurmatan otasining sandig'i ta'zimdadir" deya afsonalastirilgan taxta qoplama sandiq aslida Mavlonoga tegishlidir.

Baho Valad baqo uyiga ko'chib, ortda o'zidan yanada porloq bir yulduz qoldirgandi: Mavlono Jaloliddin... Qutb yulduzi kabi nur taratguvchi ushbu ilm va urfon javharining yonida keyinchalik chiqqan necha yulduzlar xira tortajak...

Endi asl yulduz, oshiq ko'ngillar Sultoni haqidagi hikoyamizni boshlaylik.

## II BO'LIM

### MAVLONO JALOLIDDIN

Olimlar Sultoni Bahouddin Valad o'zidan voris qilib qoldirgan suyuqli o'g'li Mavlono Jaloliddinning tug'ilgan sanasi borasida bir qancha tadqiqotchilar ter to'kkanlar. Tarixchi olimlardan Villay Durant (Willy Durant) Mavlononing tug'ilgan sanasini 1201-yil, Moris Bares (Maurice Barres) esa 1203-yil deya talqin etadi. XIV asr mavlaviy olim Aflokiy Ahmad Dadaning "Manoqib ul-orifin" asarida Mavlono 604-yil Rabi ul-avval oyining 6-kuni (1207-yil 30-sentabrda) tug'ilgani qayd etiladi.

So'nggi yillarda bu mavzuda keng tadqiqot olib borgan olimlar Mavlononing 1207-yildan ancha oldin tug'ilganini aytishadi. Ya'ni Mavlono o'zining "Fihi mo fihi" (Nimaiki Undadir, Undandir) asarida Samarqandning xorazmshohlar tomonidan qurshab olinishiga to'xtalarkan: "Samarqandda edik, Xorazmshoh Samarqandni muhosara qilib, askar tortib kurashmoqda edi", degan fikrni aytadi.

Qayd etilgan tarixiy voqelik 1207-yilda sodir bo'lgani e'tiborga olinsa, Mavlono bu paytda xotiralarini unutmaydigan yoshda, ya'ni 7-8 yoshlarda bo'lgan deyish mumkin. Shu sababli uning

tugʻilgan sanasini 1200-yillar deya qayd etmoq haqiqatga yaqin hisoblanadi. Demak, Mavlono otasi bilan Balxdan koʻchgan paytda juda yosh bola emas, balki oʻspirinlik chogʻiga yetgan yigitcha, Qoʻnyo tuproqlariga qadam bosganida esa 28 yoshlarda boʻlgan.

Xullas, Mavlono otasi Bahouddin Valad meros qoldirgan kursini egallaganda barchaning hurmat va ishonchini qozongan yosh, biroq yetuk olim boʻlib yetishgan edi.

Jaloliddinning Balxdagi bolalik damlari yetuk darveshlarning ilohiy majlislari ichra kechgani sir emas. Buni tadqiqotchi olim Mariam Xeri (Myriam Harry) shunday izohlaydi:

— Balxda Baho Valadning darveshlari tez-tez ilohiy majlislar uyushtirishardi. Mavlono onasi kichik oʻgʻlining bu majlislarda qatnashishini juda yoqtirar, ol yonoqli, yuzidan nur yogʻib turgan Jaloliddin qoʻlida ipak dastroʻmoli, boshida olmos bezakli qizil kulohi (taqiyasi) bilan boshi oʻng yelkasiga ogʻgan holda ilohiy kuylarning ohangiga gʻarq boʻlib, tinmay samo<sup>1</sup> raqsiga tushardi...

Otasining darslariga qatnab, yetuk muridlarning tarbiyasi ostida ulgʻaygan Mavlono uzoq koʻchish yillarida otasidan ajralmagan. Safar davomida oʻz davrining taniqli olim va soʻfiylari bilan tanishishga muvassar boʻlgandi.

Padari buzrukvori Bahouddin Valadning vafotidan soʻng Uning muborak jasadi qoʻyilgan zaminni muqaddas bilgan Mavlono oʻzi va avlodlarining ham doimiy qoʻnoq yeri Qoʻnyo boʻlishini istab, elga shunday xitob qilmoqda edi:

— Bundan keyin Qoʻnyoni valiyalar shahri deb atangiz. Zero, Qoʻnyoda tugʻilgan bola valiy boʻlgay. Sulton ul-ulamoning muborak jasadi, avlod-ajdodi ushbu shaharda barqaror ekan, bu yerda urush boʻlmagay. Dushman halok boʻlib, Qoʻnyo oxirzamon ofatlaridan ham omon qolgay.

Mavlono zavjasi va bolalari bilan Amir Badrid din Gavhartosh qurdirgan madrasaning bir necha hujrasini maskan tutgan edi. Otasi vafot etgach, murid va talabalar Mavlono Valad qoldirgan kursi-

<sup>1</sup> **Samoʻ raqsi** — mavlaiylik sulukida oʻn qoʻl yuqoriga, soʻl qoʻl quyiga uzatilgan holda gir aylanib, raqs tushganicha Ollohni zikr etish.

ning yagona vorisi bilib, uning atrofida jam bo‘lishgandi. Biroq Mavlono o‘zini otasining o‘rniga loyiq ko‘rmas, bu kursiga o‘tirishning hali vaqti yetmagan deb hisoblardi. Baho Valad aziz o‘g‘liga o‘zidagi bor bilimlarni misqollab o‘rgatib, haqiqat yo‘llarini birma-bir ko‘rsatib bergandi. Tinmay ilm olishga intilgan Mavlono otasining o‘limidan so‘ng yolg‘izlanib, nima qilishini bilmay qolgan bir damda yangi irfon quyoshining Onado‘liga kelayotgani haqidagi xabarni eshitadi. Bu termizlik Shayx Sayyid Burhoniddin edi.

## **BURHONIDDINNING QO‘NYOGA TASHRIFI**

“Sayyidi sirdon”, “Muhaqqiq”, “Faxr ul-majzubin” kabi unvonlar bilan tanilgan Sayyid Burhoniddin bir paytlar Balx shahrida Sulton ul-ulamo Bahouddin Valadning muridlari qatoridan joy olib, Mavlono tashrifini o‘z zimmasiga olgandi. Ma‘lum bir muddat o‘tib, jo‘shqinligi va jazavasi tufayli Burhoniddin Majnun kabi cho‘l-u biyobonlarga bosh olib ketgandi. Bir necha yil darbadar kezib, nihoyat, u Termiz shahriga kelgan va uzlatga chekingandi. Baho Valad Balxdan Onado‘liga ko‘chgach, murshidining Qo‘nyodan qo‘nim topganini eshitib, mo‘g‘ul qo‘shini tufayli tinchi yo‘qolgan bir qancha insonlar kabi u ham Onado‘li sari yo‘l olgandi. Ushbu safarning sabablari borasida shunday naql mavjud:

Kunlardan bir kun Sayyid Burhoniddin Termizda bir jamoa oldida kutilmaganda oyoqqa turib: “E-voh! E-voh! Shayxim Baho Valad bu foniq dunyodan boqiy dunyoga ko‘chmish, qani, janozasini o‘qiylik”, — deya xalqqa xitob qiladi va ayni kun Qo‘nyoda vafot etgan Baho Valadning janozasini o‘qiydi. So‘ngra esa:

— Shayximning o‘g‘li Jaloliddin Muhammad yolg‘iz qolib, meni kutmoqda... Diyori Runga (Onado‘liga) ko‘chmoq, yuzimni shayximning toza tuprog‘iga surmoq va Uning omonati bo‘lgan Jaloliddinning tarbiyasini zimmamga olmoq qarzimdir, — deya yo‘lga tushadi.

Sayyid Burhoniddin Qo‘nyoga yetib kelishi bilanoq, shayxi Bahouddin Valadning mozorini ziyorat qiladi. Bu paytda Mavlono

onasi va akasi mozorga qo'yilgan Larenda (Qahramon) shahrida edi. Sayyid Burhoniddin Mavlonoga tezda Qo'nyoga qaytishi uchun maktub yo'llaydi. Mavlonoga Qo'nyoga qaytgach, darhol uning ma'naviy tarbiyasi ostiga kiradi. Ustozini otasidan keyin bo'sh qolgan kursiga o'tqizib, uning oldida hurmat bilan tiz cho'kadi.

Sayyid Burhoniddin Mavlonoga egallagan ilm va amaliyot darajasini bilish uchun uni imtihon qiladi. Murshid uning ilmini o'lqishlarsa-da, ba'zi juz'iy kamchiliklardan xoli emasligini aytib, yo'l-yo'riq ko'rsatadi:

— Ilmda tenging yo'q. Din va yaqin<sup>1</sup> ilmida otangdan ancha o'zib ketibsan. Holbuki, otangning ham hol<sup>2</sup> ilmi, ham qol<sup>3</sup> ilmi to'liq edi. Istaymanki, hol ilmini so'fiylik yo'li bilan boshlagaysan, shayximdan menga ko'chgan ma'noni endi sen mendan olgaysan. Bugundan e'tiboran sen hol ilmiga kirishishing lozim. Bu payg'ambarlar-u valiylarning ilmidir. Bunga ladun ilmi (haqiqatni bilish) deydilar. Bu yo'lda g'ayrat ko'rsatgin-da, quyosh kabi butun olamga ziyo tarat...

Shu kundan e'tiboran Sayyid Burhoniddin — shayx, Mavlonoga unga murid bo'lgandi. Avvalo, bir xonaga bekinib olib, qirq kun chilla tutishadi. Shayx Burhoniddin har kun Mavlonoga yangi diniy bilimlar o'rgatib, Tangri haqiqati sirlarini bir-bir ayon etadi.

Sayyid Burhoniddin Mavlononing zohiriy ilmlarni ham o'rganishini istardi. Davrning eng buyuk madrasalari Halab va Shomda edi. Mavlonoga ushbu shaharlarga borib, bir-ikki yil tahsil olishi lozim edi. Bu fikrni eshitishi bilanoq Mavlonoga darhol yo'l tadorigini ko'radi va bir necha darvesh hamrohligida Halabga yo'l oladi. Shayx Burhoniddin qisqa muddatga Qaysari shahriga borib istiqomat qiladi.

Mavlonoga Halab sari yo'l olganida xurjunida kitobdan boshqa hech vaqo yo'q edi. Ammo ko'ngli... Ko'ngli o'qish va uqish ishq bilan yonardi. Mavlonoga Halabga kelib, o'z davrining taniqli hanafiy faqihlaridan Kamoliddin ibn Odim mudarrislik qilgan Halabiya madrasasiga qo'ndi. Mudarris Kamoliddin Mavlononing

<sup>1</sup> **Ilmi yaqin** — haqiqatga dalil va isbot orqali erishish.

<sup>2</sup> **Ilmi hol** — tariqatda botiniy ilmlar.

<sup>3</sup> **Ilmi qol** — tariqatda zohiriy ilmlar.

otasini yaxshi tanirdi. Shuning uchun ham Jaloliddinga alohida e'tibor berib, uning zakovati va qobiliyatidan mamnun bo'lgandi.

Mavlono Halabda ikki yil saboq oldi. Endigi niyati tahsilni Shomda davom ettirish edi. Shom mo'g'ul qo'shinlaridan chekinib panoh topgan olimlar maskaniga aylangandi. Qolaversa, bu yerda o'z davrining mashhur olimi Muhiddin Arabiy ham bor edi. Mavlono Shomga kelib, Muqaddimiya madrasasiga tushdi.

Jaloliddin kecha-kunduz o'qimoq, o'rganmoq, ilm xazinasini yanada to'ldirmoq bilan mashg'ul bo'ldi. Ilm go'yo bir ummon edi-yu, Mavlono kichik yelkani bilan ushbu ummonda muttasil suzib bormoqda edi.

Mavlono o'z davrining qator olimlari, so'fiylarini tez-tez ziyorat etar, ularning suhbatida bo'lib, o'z savollariga javob topardi. Shuningdek, fiqhga oid "Hidoya" kitobini hamda Muhiddin Arabiy asarlarini qunt bilan mutolaa qilib, ularni shuuriga jo etardi.

Mavlono Shomdagi tahsiliga to'rt yil to'lgan kunlarning birida bir hodisa uning Qo'nyoga qaytishini tezlashtirdi.

Mavlono Shomning gavjum bozorida o'ychan kezarkan, dunyoning to'rt tomonidan kelgan hamda tillari kabi ranglari va kiyimlari ham turli-tuman bo'lgan insonlar: oddiy xalqdan tortib tujjor, sayyoh va darveshlardan iborat olomon orasidan bir kimsa kutilmaganda uning qo'lidan tutib:

— Ey dunyo sarrofi bo'lmish Mavlono, meni izlab top, — deya izdihomga qo'shilib, ko'zdan g'oyib bo'ladi.

Mavlono uning ortidan yugurib, chaqirmoqchi bo'ladi, biroq u kimsa g'oyib bo'lgan edi...

Mavlono ancha yillar o'tib, ushbu kimsa o'zining eng buyuk murshidi Shamsiddin Tabriziy ekanligini anglaydi.

Mazkur sirli hodisadan so'ng Mavlono Shomda ko'p qolmay, Onado'liga qaytadi. Dastlab, Qaysari shahriga borib, shayxi Sayyid Burhoniddinni ziyorat qiladi. So'ngra u bilan birga Qo'nyoga yo'l oladi.

Sayyid Burhoniddin o'z istagi amalga oshganidan mamnun edi. U Mavlono ilmi ladunni egallashida murshidlik qilib, uni har jihatdan komil inson o'laroq tarbiyalashga sa'y-harakat ko'rsatmoqda edi.

Sayid Burhoniddinning “Maorif” nomli asaridan anglamoqdamizki, u ham Bahouddin Valadning yo‘lidan bormoqda. Ushbu asarda Sulton ul-ulamoning “Maorif”ida bo‘lganidek, faylasuf va hakamlar tanqid ostiga olinmoqda. Tangri do‘sti, oshiq va orif kimsalar maqtalmoqdadir. Ya’ni “eranlar” — Haqqa erishganlar borliq lavhidan Anal Haq so‘zini o‘qigan olim kishilar sifatida tilga olinmoqdadir.

Sayyid Burhoniddin Baho Valadning “Maorif”i ni bir necha bor o‘qigan, Mavlonoga ham o‘qitgandi.

Mavlono Burhoniddinga qattiq bog‘lanib, suluk<sup>1</sup> davrini sabrtoqat bilan o‘tkazmoqda, chilladan chillaga kirib kamolga erishmoqda edi. Bir necha kun davom etgan riyozat ro‘zalari Mavlononing rangini so‘ldirib, ozdirib qo‘ygandi.

Odatda, Sayyid Burhoniddin riyozatga juda katta ahamiyat berib, muridlariga shunday derdi:

— Agar Tangriga ibodat qila olmasangiz, u holda ro‘zani kanda qilmangiz. Ro‘za hikmat xazinalarining kalitidir. Payg‘ambar va valiylarning botinlaridagi hikmat buloqlari ochlik va ro‘za barakoti tufayli qaynab toshgan. Ro‘za tutishdan yaxshiroq ibodat yo‘qdir.

Ma’lumotlarga qaraganda, Sayyid Burhoniddin o‘n besh kunlab og‘ziga luqma olmagan paytlar bo‘lgan. Hatto nafs xuruj qilgan damlarda oshpaz do‘konidagi it yalog‘i oldida turib:

— Ey ko‘zi ko‘r nafsim, men bundan ortig‘ini topolmayman, meni ma’zur tut. Agar totmoqchi bo‘lsang, mana, istaganing yoningda, shu yaloqda, — deya nafs bilan kurashar edi...

Xullas, Mavlono ana shunday ustoz qo‘li ostida eng qiyin ro‘za amallariga rioya qilmoqda, Sayyidning o‘chog‘ida pishib yetmoqda edi.

## SAYYIDNING MA’NAVIY VAZIFASI BITMOQDA...

Shunday qilib oylar, yillar o‘tdi. Bu yillar Mavlononi yanada yetuklashtirib bormoqda edi. Ro‘za va chilla kunlari ortda qoldi. Mavlono Sayyidning etagidan tutib, to‘qqiz yil uning aytganlarini

<sup>1</sup> **Suluk** — tariqat yo‘li, sulukni ixtiyor qilganlar solik deyiladi.



bajo keltirgan, har biri haqiqat injusi hisoblangan so‘zlarini tasbeh kabi tizib, qalbiga jo qilgandi. Mavlononi kamolotga yetkazib, vazifasi bitganiga ishonch hosil qilgach, Sayyid Qaysari shahriga borib, umrining so‘nggi yillarini uzlatda o‘tkazmoqchi edi. Biroq Mavlono bunga ko‘narmikan?! Buni bilgan Sayyid fikrini Mavlono-ga ochiq-oydin ayta olmayotgan edi.

Sayyid yoz kunlarining birida xachirga minib, muridlari hamrohligida Qo‘nyo bog‘larini sayr qilishga chiqadi. Yo‘lda ko‘nglidan “Bu yerdan to‘g‘ri Qaysariga borsam...” degan o‘y kechadi, shu payt kutilmaganda xachir sakrab, uni yerga qulatadi va oyo-g‘iga qattiq shikast yetkazadi. Bu voqeani eshitib, tezda yetib kelgan Mavlono ne ko‘z bilan ko‘rsinki, ustozining oyoq suyaklari singan. Shunda Sayyid Mavlono-ga alam bilan:

— Ofarin, qanday yaxshi murid, shayxining oyog‘ini sindir-gay, — deydi. Mavlono sukut saqlagan holda, siniqlarni o‘rab-chirmab, ikki hafta davomida muolaja qiladi. Shundan so‘ng Mav-lono Sayyidning ketmasligi uchun qattiq turib olish joiz emasligini anglab yetadi.

Bir kun o‘zaro suhbat chog‘ida Mavlono:

— Nega ketmoqchi bo‘lyapsiz? — deya necha oylardan beri so‘ramoqchi bo‘lgan savolini beradi.

— Mana, sen endi barcha naqliy va aqliy ilmlarda tengi yo‘q arslon bo‘lib yetishding, o‘g‘lim... Men ham o‘zimcha arslonman. Ikki arslon bir joyda yashamagay. Shuning uchun ketmoqchiman. Mendan so‘ng sening yoningga buyuk bir do‘st kelgay. Bir-birin-gizga ko‘zgu bo‘lgaysiz. U seni botiniy olam ning eng mahram puchmoqlariga yetaklagay, sen ham uni shunday olamda yashat-gaysan. Bir-biringizni to‘ldirgaysiz va yer yuzining eng buyuk ikki do‘sti bo‘lgaysiz...

Ustoz ushbu so‘zlarni aytarkan, Mavlono ko‘zlari yoshga to‘lib tinglamoqda edi. Ayni damda Sayyid Burhoniddin Shams Tabriziy “zuhur”idan xabar bermoqda edi. U so‘zida davom etadi:

— Oллоhga hamd-u sanolar bo‘lsinkim, zaif va ojiz bu qul se-ning tengi yo‘q olim bo‘lib yetishganingni ko‘rish saodatiga erish-di. Qani, endi inson ruhiyatiga yangi bir hayot baxsh etgin-da, bu surat olami o‘liklariga ma’no va sevging bilan hayot bag‘ishlagin...

1239-yilning erta bahorida Mavlono shayxining muborak qo‘llarini o‘pib, bir qancha muridi hamrohligida Qaysariga kuza-tadi. U yerda uni shahar valiyi Vazir Sohob Shamsiddin Isfahoniy zo‘r tantana bilan kutib olarkan, shahar akobirlari Sayyidning huzuriga kelib, ta‘zim qilishadi va sovg‘a-salomlar taqdim etisha-di. Sayyid bu sovg‘alarga aslo qo‘l urmay, faqirlarga, yetim-yesir-larga bo‘lib berishni buyuradi.

Sayyid Burhoniddin Qaysariga kelib, uzlatga chekinadi. Mav-lono vaqti-vaqti bilan bir necha bor ustozini ziyorat qilib, ko‘nglini oladi. Qaysari xalqi Sayyidga juda katta hurmat ko‘rsatardi. Hatto uni bir gal jome masjidiga imomlikka tayinlashadi. Biroq Sayyid Burhoniddin namoz o‘qirkan, ba‘zan soatlab oyoqda turib qolar, ruku‘ va sajdaga borganda ham tag‘in anchagacha o‘rnidan turmay qolgan hollar bo‘lardi. Jamoat uning bu harakatiga bardosh bera olmay qolgandi. Shunda Sayyid:

— Meni ma‘zur tutingiz... Men hayajonga berilgan odamman... Tangrining huzurida o‘zimdand kechib, sizlarni unutib qo‘yayotir-man. Men imomlik qilolmayman. Siz o‘zingizga muvofiq imom toping, — deya jamoatdan uzr so‘rab, takror hujrasiga chekinadi.

Ushbu voqeadan ko‘p o‘tmay, muridlar Bag‘doddan mutasav-vuf Shayx Shahobiddin Umar Suhravardiy Sayyidni ziyorat qilish uchun Qaysariga kelayotganini ma‘lum qilishadi. Ikki kundan so‘ng Suhravardiy Qaysariga yetib keladi. Sayyidni hujra oldida-gi tepalikda o‘tirganini ko‘rib, yoniga cho‘kkalaydi. Ancha vaqt o‘tsa-da, na Sayyid, na Suhravardiy so‘z ochadi.

Nihoyat, Suhravardiy o‘rnidan turib nari ketadi. Bu g‘aroyib ziyoratni hayrat bilan kuzatgan muridlar Sayyidga:

— Bu qanday uchrashuv bo‘ldi? O‘rtalaringizda hech bir mulo-qot voqe bo‘lmadi. Bir bora bo‘lsa-da so‘zlashmadingizlar. Bunga sabab ne? — deb so‘rashadi. Sayyid ularga shunday javob beradi:

— Hol ahli yonida qol tili emas, hol tili lozim. Qur‘oni Karim-da “Jim qoling” xitobi vorid bo‘ldi. Haqiqatni ko‘rganning huzu-rida jim qolmoq vojib. Zero, hol bo‘lmay turib, qol bilan ko‘ngil mushkullari hal bo‘lmagay.

Sayyid Qaysariga kelganiga hali bir yil ham bo‘lmagan, umri-ning so‘nggi kunlarini yashayotganini bilardi. Bir kun xizmatchisi-

ga tog'orada issiq suv tayyorlashni buyurdi. Suv olib kelingach, turib tahorat oldi. So'ngra xizmatchisiga:

— Bor, eshikni mahkam berkit-da, tashqariga chiqib: “G'arib Sayyid dunyodan o'tdi”, deya ovoz sol, — dedi. O'zi esa xonaning bir chetiga chekinib, so'nggi duoga qo'l ochdi:

— “Ey Buyuk Tangri, ey Do'st, meni huzuringga qabul qil va jonimni ol... Meni mast ayla va har ikki dunyodan xalos et... O'zing yorlaqa... Sensiz har ne ila ko'nglim rohat esa, uni mendan judo et...” — deb, jon taslim etdi...

Xizmatchi dod solganicha Sohob Shamsiddin tomon yuguradi. Sayyidning vafoti haqidagi xabar qisqa vaqt ichida butun Qaysariga tarqagan, katta bir jamoa Uning hujrasi oldida to'plangan edi. Sohob Shamsiddin janoza tadbirini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rarkan, Mavlonoga xabar yo'llyaydi. Mayyit duo va takbirlar bilan musalloga qo'yilib, janoza o'qildi, xatmi Qur'on qilindi...

Mavlono shayxining o'limi xabarini eshitishi bilanoq, chuqur qayg'u ila darhol Qaysariga yetib kelib, Sayyidning mozori boshida soatlarcha duolar o'qib o'tirdi.

Sohob Shamsiddin Sayyidning kitoblarini Mavlonoga taqdim etadi. Ushbu kitoblar orasida Sayyidning “Maorif” nomli nodir asari ham bor edi. Mavlono ustozining kitoblarini olib, Qo'nyoga qaytadi.

### III BO'LIM

#### IKKI UMMON UCHRASHUVI

#### MAVLONO HAYOTIDA PORLAGAN QUYOSH: TABRIZLIK SHAMSIDDIN

Saljuq davlati poytaxti Qo'nyo asr namozi mahali quyosh nurlari ostida porlab turardi. Mavlono Jaloliddin Oltin Aba madrasasida talabalarga saboq berib, uyiga qaytmoqda edi. Mingan xachirini ikki talaba yetaklab borarkan, boshi o'ngga solingan Mavlono tavoze va

yo'qlik tuyg'usi ichra bukchayib, og'ir, ohista ilgarilab bormoqda edi. Ko'chaning naq o'rtasida kutilmaganda kimdir ikki qo'llab xachirning tizginiga yopishdi. Mavlono xachirning ilkis to'xtashidan seskangancha o'ziga kelib, boshini ko'tardi. Qorachadan kelgan xushsurat, notanish bir kimsa yo'lini to'sib, xachirning tizginiga qattiq yopishgancha, o'tli, keskin nigohlari bilan Mavlonoqa dadil tikilib turar edi. Soch-soqoli moshguruch keksa darveshning o'tli boqishlari ostida qolgan Mavlono bunday sohir, jozib ko'zlarni umrida ilk bor ko'rmoqda edi. Ayni damda nogahoniy bir uchqun chaqnab, ikkalasi ham otash o'tida yongandek bo'ldi. Qisqa, biroq vahmkor bunday sukutni notanish kimsaning qat'iy, dona-dona so'zlari buzdi. U jiddiy, jarangdor ovozda so'rab qoldi:

— Sen balxlik Sulton ul-ulamoning o'g'li Mavlono Muhammad Jaloliddinsan, to'g'rimi?

— Ha.

— Bir mushkulim bor, ayt-chi menga, Hazrati Muhammad ustunmi, Boyazid Bistomiymi? Xo'sh?..

Mavlono ko'cha o'rtasida to'plangan olomonning hayratomuz boqishlari ostida kutilmagan bunday savoldan bir seskandi-da, tag'in o'zini o'nglab oldi. Ushbu savol ostida nihoyatda ulkan hamda tagdor ma'no yotganini darhol idrok etib, savol egasining oddiy kimsa emasligini angladi va javob berdi:

— Bu qanday savol bo'ldi? Albatta, Hazrati Muhammad ustun...

Savol berguvchining boqishlari yumshab, lablarida tabassum paydo bo'ldi. Va yana so'rab qoldi:

— Durust, ammo Hazrati Muhammad "Yo Rabbim, Senga tavba qilaman, biz Seni loyiq bo'lganing darajada bila olmadik", — deydi. Holbuki, Boyazid Bistomiy "Men barcha qusurlardan poklandim, mening shonim juda yuksakdir. Zero, jismimning har zarrasida Tangridan boshqa narsa yo'q", deydi. Bunga nima de-yish mumkin?

Mavlono savolning bu darajada jiddiy tus olishini oldindan bilgan edi, darhol javob berdi:

— Chunki Hazrati Muhammad kunda behisob darajalarga yuksalar, har maqom va martabaga yetganida avvalgi bilim va xayo-

lotidan istig'for aytardi. Shu tarzda Payg'ambar hech bir maqomda va hukmda to'xtab qolmay, o'zini abadiyan poklab boradigan Rabbim hamda uning barcha tajalliyarlari ichra ham yuksalish va poklanishga molik bo'lgan edi. Mutasavvuf Boyazid Bistomiy esa yetishgan ilk maqomining sarxushligi ichra o'zini yo'qotib qo'ydi, shu maqomda qoldi va darhol shu so'zni so'yladi...

Darvesh javobning ulug'vorligi oldida dosh bera olmay, titrab ketdi, hayqirgancha hushdan ajrab yerga yiqildi. Mavlono hayajon ichra xachiridan tushib, darveshni qo'ltig'idan tutib ko'tardi.

Ayni damda ikki ummon go'yo bir-biriga qovushgandek edi. Darvesh o'ziga kelishi bilanoq, ular azaldan bir-biriga tanish ikki do'st kabi quchoqlasha ketishdi. Mavlono darveshning qo'ltig'iga kirib, hech nima demay uyiga, madrasasi tomon yetakladi.

Ushbu holatni chuqur hayrat ichra tomosha qilib turgan muridlar va olomon bu hodisot sirini anglab yeta olmay, bir-birini quchgancha ketib borayotgan ikki zotning ortidan boqib qolishdi, xolos.

## MAVLONONI MAVLONO AYLAGAN TABRIZLIK SHAMS

Xo'sh, ko'cha o'rtasida Mavlononing yo'lini to'sgan, bergan bir juft savoliga olgan javobni eshitib hushini yo'qotib qo'ygan, darvesh qiyofasidagi bu asrorangiz qariya kim edi? Bu zot olim hamda mutavoze bir so'fiyni tubsiz ishq dengiziga g'arq etgan, uni ishq qozonida yoqib-qovurgan, qisqasi, Mavlononi Mavlono aylagan Tabrizlik Shams edi.

Aytishlariga qaraganda, u ozariy turklaridan Malikdod ibn Ali degan bir zotning o'g'li bo'lib, Tabrizda tug'ilib, ulg'aygan edi. U bolaligidanoq turfa hollari, g'aroyib xislatlari bilan ko'pchilikning diqqatini o'ziga jalb qilgan edi. Ayniqsa, bolaligida ro'y bergan oddiygina bir holat uning buyuk kelajagidan darak berardi: otasi bilan birga daryo qirg'og'i bo'ylab sayr qilisharkan, tovuq ostidagi tuxumlardan chiqqan o'rdak bolalari daryoga otilib, yuza-yuza narigi sohilga chiqqan bo'lishiga qaramay, tovuq suvga tusha ol-

may, sohilda qoqolagancha zir yugurardi. Bu manzarani tomosha qilib turgan yosh va mag'rur Shamsiddin otasiga shunday deydi:

— Bu holga boqing, ota!.. Go'yo siz bilan mening o'rta-mizdagi holga o'xshaydi. Tovuq sohilda tipirchilab turgani holda jo'jalari suvga tushib, narigi betga o'tishdi. Maslaklar, sa'jiyalar o'rtasida qanchalar farq borligini ko'rdingizmi?..

Mavlaviy haqidagi ko'pgina manbalarda Shamsiddin Najmiddin Kubroning xalifalari bo'lmish Bobo Kamol yoxud xilvatiya silsilasidan bo'lmish Qutbiddin Abhar xalifasining darveshi sifatida qayd etiladi. Holbuki, Shams o'zining "Maqolot" asarida "Mening Tabrizda Abu Bakr ismli bir shayxim bor edi. Savat yasab kun kechirardi. Undan juda ko'p ilm o'rgandim. Biroq menda bir narsa xislat ediki, uni shayxim ko'ra olmasdi. Zotan, uni hech kim ham ko'rmagan edi, aynan shu narsani pir-u ustozim Mavlono ko'rdi..." deyish ila ilk shayxi savat to'quvchi Abu Bakr ekanini ifoda etgan.

Ma'lum bir muddatdan so'ng shayx xonaqosi hamda Tabrizni tark etib, shaharma-shahar kezgan Shams endi bundan keyin hech kimga mahram bo'lmay, biror-bir shayxga bog'lana olmay qolgan edi. Uning o'ziga ishongan, har kimni ham yoqtiravermaydigan ajabtovur mag'rur fe'l-atvori bor edi. Bir insondan bahs yuritilganda:

— Kecha onasining qornidan chiqib, bugun lomakonni idrok etish o'rniga Tangrilikni da'vo qilgay. Tangri muqallidlaridan toliqdim, bezdim... Bir odamni taniyman, falon shayxning nomini, shuhratini eshitib, olis yo'l yurib, uni ko'rishga kelgay. Shayx undan nega kelganini so'raydi, u esa Tangrini izlash maqsadida kelganini aytadi. Shayx unga Tangrining samolarda hukm surayotgani, samoviy kemalarini yuritayotganini aytgach, bechora yo'lovchi o'rnidan turib ortga qaytgay va ushbu shayxni ortiqcha sinab ko'rishni lozim topmagay, — deydi. Bu so'zlar bilan u o'zini e'tiborga olayotgani ma'lum. Tag'in aytmoqda ediki:

— Barcha o'zidan, shayxidan so'z yuritgay, unga nisbat iddao etib, haqiqat yo'lida o'ziga bir rishta qurgay. Holbuki, bizga shaxsan Tangri Rasuli ma'no olamida xirqa kiydirdi. Bu xirqa ikki kunda eskirib-to'ziydigan, yirtilib chiryidigan, gulxanlarga otila-

digan xirqalardan emas... Bu shunday bir suhbat va haqiqat xirqasidirki, u zamon va makondan tashqaridadir. Zero, ishqda zamon va makonning chegarasi yo‘q...

## SHAMS TANILMOQDAN QO‘RQMOQDA, YO‘QLIKKA YO‘L OLMOQDA EDI

Bu so‘zlari bilan Shams tag-tugining tayini yo‘q, safsatalar orqali shayxni ta’rif etganlarni nazarda tutmoqda, aslida bu safsatalarning chindan ham kurakda turmaydigan loflar ekanini ifodalamoqda edi. Uning nazdida haqiqatga lof bilan, hatto ilm bilan ham yetib bo‘lmaydi. Ilohiy visolga faqatgina shariatga amal qilish, mezonlarga bosh egish, yetuk bir murshidning, yo‘l ko‘rsatuvchining tarbiyati ostiga kirish, ishq bilan, muhabbat bilan yo‘l olish orqali yetish mumkin edi. Shuning uchun ham u faylasuflarga e’tiroz bildirardi:

— Sho‘rlik faylasuf o‘n xil aql bor, ular butun koinotni qoplab olgan, deydi. Keyin esa hech bir aqlning haqiqatni topa olmasligini anglab, kalovlanib boshini qashiydi, biroq tag‘in bundan sa-boq olmaydi...

Shams ilohiyini, bilimni, hatto minglarcha yil tahsil olinsa-da, o‘rganib bo‘lmasligini, hech bir bilimning Olloh vuslati qo‘lga kiritilgan fayzga teng bo‘la olmasligini so‘ylar, bu hikmat va haqiqat manbaini ko‘ngildan, ya’ni shubha va gumonlardan xoli sof ko‘ngillardan izlar edi. Dardiki:

— Hamma narsa insonga fidodir, inson esa o‘ziga, o‘z haqiqatiga fido... Olloh ko‘klarni va arshni emas, basharni ulug‘laganidan xabar beradi. Arshga borsang ham, uning ustiga chiqsang ham foyda yo‘q... Shuningdek, yetti qavat yer ostini kechib o‘tsang ham befoydadir. Ko‘ngilga kirmoq, ko‘ngil sohibiga yor bo‘lmoq lozim. Barcha payg‘ambarlarning a‘moli ko‘ngildir. Va inson o‘zini bilgachgina, hamma narsani bilgay.

Shamsga ko‘ra qullik — ko‘ngil qulligidir. Xizmat — ko‘ngil xizmatidir. Bu esa insonning Tangrida g‘arq bo‘lishidir. Shariat esa bu g‘arq bo‘lishning tamal toshidir. Boshqa yo‘l yo‘q. “Bir lahya

o‘yga tolmoq, muroqaba<sup>1</sup>ga bormoq, ko‘ngilga egilmoq oltmish yillik ibodatdan xayrlidir” hadisidagi o‘yga tolmoqdan maqsad ham sodiq darveshning ko‘ngil huzuridir. Haqqa qaytish Haqqa taslim bo‘lishdir.

Shams mudom haqiqat ahli, ko‘ngil sohibini izlab, olis yo‘llar kezmoqda, turli o‘lkalardagi xonaqoh, karvonsaroylardan qo‘nim topmoqda edi. Ba‘zi mamlakatlarda, hatto ma‘lum bir mudat turib qolgan paytlari ham bo‘lardi. Biroq bunday damlarda ko‘pincha muridlar uni tezda tanib qolib, atrofini o‘rab olishardi. Shunda u bu yerlarda turib qolish tahlikali ekanini anglab, tezda boshqa mamlakatga ko‘chib o‘tardi. Ko‘pincha Shomga borardi. Shomda bir xonaqohga tushib, hujrasini qulflab olar, so‘ng esa bir necha kun davomida yolg‘iz qolib, hech kimni ichkariga kiritmas, birov bilan ko‘rishmasdi. Doimo riyozat chekar, bir kulcha non, bir qumg‘on suv bilan kun kechirardi. Shomda ekan, bir ohakchi do‘koniga borgan edi. Ohakchi eski mushtariysini darhol tanib qolib, unga biroz suyuq yovg‘on bilan issiq kulcha non tutadi. Shams o‘zini tanib qolishganini payqab, kosani yerga qo‘yadi va qo‘llarini yuvish bahonasida do‘kondan chiqib, shu kuniyoq Shomni tark etadi. Yana bir gal Arzirim<sup>2</sup>da joylashib, maktabda dars bera boshlaydi. Biroq qisqa bir vaqtdan so‘ng xalq uni tanib, atrofini qurshab oladi. Ko‘p o‘tmay, u bu yerdan ham jo‘nab ketadi.

Tabrizlik Shamsiddin erishgan maqom va martabalarda to‘xtab qolmay, yanada yetuk bir shayx, yanada yuksak maqom izlamoqda edi. O‘zini ulug‘ maqomlarga erishtiradigan murshidi komilning suhbatiga noyil bo‘lish uchun yillar davomida qator mamlakatlarni kezib chiqqandi. Aynan shuning uchun ham unga “Shamsi parranda — uchar Shams” degan nom qo‘ygan edilar. To‘xtamay olam kezar, izlanar, so‘rab surishtirar, “shayxman” deganlarni sinab ko‘rib, kutgan javobini ola olmagach, ko‘ngli to‘lmay, tezda undan uzoqlashardi. Dardiki:

— Ulkan shaharlarda yashamoq bir murshidning xizmatiga kirmoq demakdir. Qolaversa, bir murshidning qudrati va suhbat

<sup>1</sup> **Muroqaba** — Olloh Taoloning fikr-u yodi bilan dunyo taalluqotlaridan uzoq bo‘lish.

<sup>2</sup> **Arzirim** — Onado‘lidagi shahar nomi.



kifoyasiz bo'lsa, bu yerda mixlanib qolish falokatini bir tasavvur qilib ko'ring.

Bir gal yo'li Bag'dodga tushgan edi. Taniqli so'fiylardan Shayx Avhoduddin Kirmoniyni ziyorat qilib, hol-ahvol so'radi. Shayx Avhoduddin "Go'zallarda jamoli Mutloqni ko'rmoqdaman" so'ziga ishora qilib:

— Oyni tog'oradagi suvda tomosha qilmoqdaman, — dedi. Bunga javoban Shams: — Ensangda chipqon yo'qsa, boshingni ko'tar-da, ko'kka boq! Shunda Oyni tog'orada emas, o'z zotingda ko'rgaysan. Modomiki shunday ekan, nega tog'oralarga egilib, o'zingni izlagan narsangning aslidan mahrum qilmoqdasan, — deyishi bilanoq, Avhoduddin Shamsning qo'llariga yopishib, muridi bo'lishni istaydi. Shams:

— Bizning suhbatimizga bardosh bera olmaysan, — deydi. Avhoduddin bardosh bera olishini aytib, qattiq turib olgach, Shams takror so'raydi:

— Bo'пти, bir shart bilan. Bag'dod bozorida xalqning oldida sharob icha olasanmi?

— Astag'firulloh, bunday qila olmayman.

— Mayli, bu shartimdan voz kechdim, xo'sh, men bozordan sharob olib ichsam, men bilan suhbat qura olasanmi?

— Yo'q, bundoq ham qila olmayman...

— U holda eranlarga yaqin yo'lama! Menga do'st bo'la olmaysan sen... Shuni ham bilki, men murid emas, shayx izlamoqdaman. Shunchaki bir shayx emas... Chindan ham haqiqatlarni bilguvchi, yetuk shayx, yetuk bir murshid... Va o'zi buni shunday izohlaydi:

— Men haqiqiy murshid topish maqsadida juda ko'p o'lkalarni kezdirdim. Qayerga borgan va kimgaki duch kelgan bo'lsam, bari besamar bo'ldi... Bir yerda shunday naql qilmoqda edilar: Bir shayx o'tgan ekan, har qanday kimsaga xirqa kiydirar, davlat va saltanat ehson etar ekan. Lekin u vafot etgan ekan, men uni ko'rmadim... doim mana shunaqa quruq gaplarni eshitdim, xolos... Komil shayx haqida, o'rni kelgan ekan, mezonni aytmoqchiman... Kimdir bir kimsaga qarshi biror so'z aytsa, u inson aslo xafa bo'lmasligi, unga nisbatan kin saqlamasligi lozim. Bunaqasini ham uchrata olmadim. Chunonchi, jo'n bir kamol ila haqiqiy kamol orasida hali

qanchadan qancha masofalar bor. Xullas, men shayxlikka loyiq kimsani topa olmadim, — deydi.

Shams fikrini tasdiqlash uchun shunday misol keltiradi:

— Bir odam baliqni anglatmoqda, kattaligini ta'rif etmoqda edi. Shunda birov:

— Sen baliq nimaligini bilasanmi o'zi? — deya so'rab qoldi.

U odam:

— Nega bilmas ekanman!.. Axir, yillar davomida dengiz safarida bo'lgan bo'lsam...

— Xo'sh, unda baliq qanday bo'ladi?

U odam tushuntira ketdi:

— Baliqning tuyadek ikki shoxi bor...

— Bas, yetar... Sen hali ho'kiz bilan tuyaning farqini bilmaysan-u, tag'in baliqni ta'riflamoqchi bo'lyapsan, — deb e'tiroz bildirgan ekan haligi kimsa.

Ma'lum bo'ladiki, Shams xonaqoh shayxlardan bo'lishni istamas edi. Bir necha shayxlarni sinab ko'rib, ularni shayx emas, hatto murid bo'la olmasliklariga guvoh bo'lgandi. Shuhrat, mol-mulk foyda emas, zarar keltirishini, dunyoga mixlab qo'yishini u yaxshi bilardi. Xalq doimiy kurashlar, talon-torojlar tufayli bu dunyodan bezgan edi. U ushbu dunyoda topa olmagan huzurni hech bo'lmasa narigi dunyoda topish uchun ma'naviyatga yuz tutgan, tasavvufga moyilligi ortgan edi. Shams sof tuyg'ularini suiiste'mol qilganlardan hamda men bundoqman, men undoqman deguvchilardan nafratlanar, mamlakatma-mamlakat kezib, haqiqiy shayx, murshid izlash ilinjida bir necha yillardan buyon yelib-yugurmoqda edi. Uning yoshi oltmishga yetgan, qora soqoliga oq oralagandi. Ustida jun jubba, qo'lida alam<sup>1</sup>, boshida kuloh bor edi. Ba'zan yelkada tosh tashib, evaziga arzimas chaqa olar va shu zaylda kun kechirardi. Birovdan hech narsa tama qilmas, birovga yuk bo'lishni istamasdi. Ko'pincha och qolib, nafsini kalaka qilardi. Shams Onado'lini shu tarzda kezib yurar, bir-ikki kun shahar va qasabalarda qo'noqlab o'tar edi. Ana shunday kunlarning birida yo'li Qo'nyo yaqinlaridagi Oqsaroyga tushadi. Munosib qo'noq joyi topa olmagan uchun masjidida tunamoqqa qaror qiladi. Mas-

<sup>1</sup> Alam — tug'.

jidning bir chekkasiga borib cho'k tushadi. Xufton namozidan so'ng muazzin eshikni berkitmoqchi bo'lgan bir paytda Shamsni ko'rib qolib, unga zarfa qiladi:

— Hoy, kimsan? Chiq bu yerdan, bor, yotgani boshqa joy top...  
Shams:

— Meni ma'zur tuting. G'arib bir yo'lovchiman. Yotadigan joyim yo'q. Ruksat bering, bu kecha shu yerda tunay, — deydi.

Muazzin uning bu gaplarini eshitib, yanada darg'azab bo'ladi va baqirganicha achchiq so'zlar ayta boshlaydi. Shams uning no-jo'ya so'zlaridan qattiq ranjiydi va:

— Inshoolloh, tiling og'zingga sig'may qoladi, — deya masjidni tark etadi. Shu payt muazzinning tili shishib, bo'g'ziga tiqila boshlaydi. Xirillab chiqayotgan tovushlarni eshitib, yordamga yugurib kelgan imom undan:

— Nima gap, nima bo'ldi? — deb so'raydi. Joni halqumga kelgan muazzin qo'li bilan uzoqlashib ketayotgan Shamsni ko'rsatib:

— Meni anavi bu holga soldi... Yugur, undan men uchun afv so'ra, — deydi.

Imom yugurib borib, Shamsni to'xtatadi va:

— Uzr, hazrat, sho'rlik muazzin sizning kim ekaningizni bil-mabdi, aybga buyurmang, uni qutqaring... — deya yolvorishga tushadi.

— Endi kech bo'ldi, hukm Tangridandir, men hech nima qila olmagayman. Biroq uning iymon birla qazo qilishi, oxirat azobini ko'rmasligi uchun duo qilgayman, — deydi va yo'lida davom etadi. Imom ortga qaytib kelgach, ne ko'z bilan ko'rsinki, uzala tushib yotgan muazzin jon bergan edi.

Shams Qo'nyo tomon yo'l oladi.

Uning Qo'nyoga kelishi bejiz emasdi. Har borgan joyida Mav-lono haqida so'z ochilib, uning xalq o'rtasidagi nufuzidan bahs yuritilmoqda edi. Bir gal:

— Tangrim, meni do'stlarim birla uchrashtir, — deya tong-gacha niyozda bo'lib, uyquga ketadi. Ro'yosida bu tilagi ijobat bo'lishi, biroq buning uchun Onado'li eliga borishi kerakligi buyuriladi. Chunonchi, undan buning evaziga nima bag'ishlay olishi so'raladi. Shams:

— Boshimni!... — deya javob beradi. Uygʻonishi bilanoq darhol yoʻlga tushadi. Onadoʻlini kezgan sari xalq oʻrtasida Mavloning nomi, shuhrati haqida iliq soʻzlar koʻpayib boradi. Soʻng u Qoʻnyoga borishga qaror qiladi va 1244-yilning noyabr oyida Qoʻnyoga keladi. Uzoq-uzoqlardan yuksak minoralarni koʻrib, hayajonga tushadi. Naqadar ulugʻ, naqadar buyuk shahar edi Qoʻnyo... Yon-atrofi qalin qalʼa bilan oʻrab olingan, tillakori minoralardan turli-tuman haykallar, arslon shakllari koʻzga tashlanardi. Qalʼa atrofi boʻylab chuqur xandaqlar qazilgan boʻlib, oʻn ikki darvoza oldida xandaqlar uzra osma koʻpriklar qurilgandi.

Shams oqshomga yaqin katta darvozadan shaharga kirdi va Shakarchilar xonaqohining bir xonasiga joylashdi.

Ertasi kun 25-noyabr boʻlib, Shams xonaqoh eshigi oldidagi toshloq joyda choʻkkalab, oʻtgan ketganlarni tomosha qilmoqda edi. Asr namoziga yaqin katta koʻcha boʻylab mudarris qiyofasidagi bir kimsaning talabalar qurshovida xachir ustida oʻtib ketayotganini koʻradi. Xaloyiq:

— Mavlono Jaloliddin kelmoqda! — deya oyoqqa turib, ta-voze bilan salomlamoqda edi. Demak, xachir ustidagi kalta qora soqolli, bugʻdoyrang bu kimsa — necha yillardan beri dovrugʻini eshitgan, bir gal esa Shomda koʻrgan Mavlono ekan-da! Shams oʻrnidan turdi va izdihom oralab olgʻa intildi. Unga yaqinlashishi bilanoq, xachirning tizginidan mahkam tutib oldi. Yuqorida aytganimiz kabi biroz qiyin va qisqa savollar berdi. Olgan javoblardan shu qadar hayajonlandiki, oyoqda tura olmay, hushidan ketdi...

Shams bilan Mavlono ilk bor uchrashgan ushbu joyga mavlaviylar keyinchalik Qurʼoni Karimning “Rahmon” surasi 19-oyatidan olingan, yaʼni “ikki dengiz qorishgan joy” maʼnosini anglatgan “Meʼroj ul-bahrayn” nomini berishadi. Saljuqiylar davrida Shakarchilar xonaqohining old tomoni hisoblangan bu joy ihota qilinib, ziyoratgoh holiga keltiriladi.

Mavlono Shams bilan shu tarzda uchrashgandan soʻng uni yerdan koʻtarib olib, necha yillardan beri bir-birini tanigan va izlagan ikki eski doʻst kabi hasrat va hayajon ichra quchoqlashgancha Mavlononing madrasasi tomon odimlab ketishadi. Shu tariqa ular maʼno olamining sirli hujrasida oylarcha davom etuvchi suhbatni boshlab yuborishadi.

## MAVLONO SHAMS BILAN YUZMA-YUZ

Mavlono birinchi kuniyoq:

— Ey, Shamsiddin Tabriziy, ey ma'no olaming injusi, garchi uyim senga loyiq bo'lmasa-da, ammo men sodiq bir qulingman endi. Qulning nimasi bor bo'lsa, bari xo'jayinikidir. Bundan keyin bu uy seniki; bolalarim sening ham o'g'il va qizlaring hisoblanadi, — deya uning xizmatiga bel bog'laydi.

Shams Mavlononi yana bir bor sinamoqchi edi. Bir paytlar Avhoduddin Kirmoniyga buyurganidek, Mavlonoga ham sharob olib keltirishni buyuradi. Mavlono barchaning hayratli va vahimali nazari ostida Shamsning bu istagini bajo keltiradi. Shunda Shams:

— Biz seni sinab ko'rdik, sen biz tasmol qilgandan ham ortiq ekansan. Magar sen hech kimsa tashiy olmaydigan yukni hech ziyon yetkazmay yelkasiga ola biladigan komil inson ekansan. Senda shunday qudrat va bardosh bor ekan, bu dunyoda hech kimsa senga teng kela olmagay, — deya sharobni to'kib, Mavlononi quchadi. Mavlono bir necha kunlik suhbatdan so'ng Shamsning tengsiz murshid ekanligini anglab, uning yuksak kamolotida, jamolida Tangri nurlari aks etayotganiga iqror bo'ladi.

Mavlono uy sifatida istifoda etib kelgan kichik madrasa berkitilib, endilikda ishq va ma'no maskaniga aylanadi.

Shu kungacha talabalarga saboq bergan mudarris, jome masjidlarda va'zlari bilan sevilgan xatib, fatvolari bilan shar'iy mushkullarni hal qilgan mufti Mavlono Jaloliddin endi barcha dunyo tashvishlaridan mosuvo bo'lib, Shamsning suhbatini — sir to'la ishq dasturxonini atrofida cho'kkalab olgancha, to'yib-to'yib tanovul qilmoqda edi.

— Xoh Mashriqqa, xoh Mag'ribga borsam yoxud ko'klarga chiqsam-da, sendan darak topmaguncha tiriklikdan nishon yo'q menga. Yurtning bir zohidi edim, minbarim, kursim bor edi. Endi esa ko'ngil mayli sening oldingda ta'zimda turgan bir oshiq holiga keltirdi meni!.. — der edi.

Shams Mavlononi, eng avvalo, mutolaadan, kitoblardan ayiradi. Deydilarki, u bir kun madrasadagi hovuz boshida o'tirib,

Mavlononing kitoblarini bir-bir hovuzga ota boshlaydi. Xuddi shu payt ko‘chadan kirib kelgan Mavlono ne ko‘z bilan ko‘rsinki, yillar davomida ko‘z nurini to‘kkan kitoblari hovuzga otilgan, hovuz siyoh daryosiga aylangandi. Ushbu kitoblar orasida Balxdan ko‘chgan paytlarida Nishopurda Farididdin Attor sovg‘a qilgan “Asrornoma” asari ham bor edi. Sulton ul-ulamo Bahouddin Valad yosh o‘g‘li Mavlono Jaloliddin hamda oilasi bilan Balxdan ko‘char ekanlar, Nishopurda qo‘noqlagan, u yerda o‘z davrining buyuk mutasavvularidan Farididdin Attor bilan uchrashgan edilar. Farididdin Attor yosh Mavlononing zakovati va bilimiga hayron qolib, “Asrornoma” asaridan bir nusxa sovg‘a qilgandi. Mavlono ushbu asarni bir necha bor o‘qigan bo‘lishiga qaramay, hovuzga otilganidan ko‘ngli biroz xijil tortadi. Shams buni his etishi bilananoq, qo‘lini hovuzga botirib:

— Mana, ol, istagan kitobing shu emasmi? — deya Mavlonoga uzatadi.

Vo ajab! “Asrornoma” yuzini qoplagan changi bilan qup-quruq turardi. Kitob go‘yo hovuz to‘la suv ichidan emas, kutubxona rafidan olingandek edi.

Shams:

— Ishq ilmi madrasada o‘rganilmagay, — deb Mavlonoga o‘qishni man etmoqda edi. Hatto otasi Baho Valadning “Maorif”ini o‘qishga ham ruxsat bermasdi.

Shuningdek, Mavlono juda yaxshi ko‘rgan Mutanabbiy devoni mutolaasiga ham e’tiroz bildirardi.

— Mutanabbiy kim bo‘libdi? U senga otboqarlik ham qilolmaydi!

Shams Mavlonoga “samo” raqsining zavqini tottirgan, uni bu yo‘lda irshod<sup>1</sup>ga boshlagan edi. Samo’ borliqdan ajralib chiqib, o‘zni unutilgan holda mutloq foniylik ichra baqo zavqiga erishish hisoblanardi. Samo’ oshiqning ozuqasi edi. Zero, samo’da sevgiliga erishishning totli xayoli bor edi. Bu vuslatning zavqini olgan oshiq endi zamon va makondan ham mosuvo bo‘lar edi. Masnaviyda “Vaqtdan, vaqt qaydidan qutuldingmi, beixtiyor Tangriga mahram bo‘lgaysan”, deb bejiz aytilmagan edi.

<sup>1</sup> **Irshod** — ta’lim berish.

Shams Mavlononi raqsi samo'ga tashviq etar va derdiki:

— Samo' qilingiz, Haqqa intilgan va Unga oshiq bo'lganlar samo' qilgan damda ishqlari va ma'naviy hollari ortgaydir...

Juda qadim zamonlardan beri faylasuflar, mutasavvuflar, hatto payg'ambar-u valiylarning samo' qilganlari, samo'da Haqni zikr qilganlari ma'lum.

— Samo' qiling, Haqqa intilgan va Unga oshiq bo'lganlar samo' qilgan damlarida oshiqdari ham yo'q edi. Oshiq va ma'shuq bor edi, xolos. Yo'lovchi o'ziga yo'l ko'rsatganga chin e'tiqod bilan bog'lanar, uning izidan borardi. Bu yo'lda ba'zan hatto qay biri oshiq, qay biri ma'shuq ekanligini bilib bo'lmasdi, ilohiy irshod o'zaro birgalikda zuhr etardi. Bu ishq ramzlar bilan ifoda etilardi. Mana shu ilohiy ishq, jazava, Tangriga bo'lgan sevgi Mavlononi ham, Shamsni ham aql-u hushidan ayirgandi. Har bir zarra hamda falaklar quyosh atrofida ilohiy nizom asosida aylanganidek, ular ham aql-u hushlaridan ayrilib, jazava bilan samo' qilmoqda, yolg'iz Ollohni zikr etmoqda edilar.

Shams:

— Samo' raqsida oshiqdarga Tangri tajalliysi yanada ziyoda voqe bo'lgay. Samo' ularni moddiy olamdan ayirib, Haq visoliga erishtirgay, — derdi.

Samo' raqsi asnosida har bir harakatning ilohiy ma'no va ifodasi mavjud. Samo'da charx urish, oniy aylanishlar Tangrini har tomonda ko'rish hamda fayz olishni ifodalaydi. Oyoqlarni yerga urish esa nafsni oyoqlar ostida ezish va uning ustidan qozonilgan g'alaba kuyini chalish demakdir. Qo'llarni yon tomonga ochmoq kamolga yo'nalishdir. Samo'da sajda qullikning ayni o'zidir.

Kechagi kunga qadar lang ochiq bo'lgan Mavlononing uyi bugun ikki jon do'stning o'zaro diydor uchrashuvi tufayli mahkam berkitilgan, ahyon-ahyonda undan "Haq" yoxud "do'st" nidolari hamda rubob va nay tovushlari eshitilardi.

Shamsning kelganiga uch-to'rt kun bo'lgan edi. Bu uch-to'rt kun ichida xonalariga faqatgina Mavlononing o'g'li Sulton Valad kirar, xizmat qilardi. Ikki do'stning Haqqa yo'nalib olib borgan o'zaro suhbatlariga quloq tutgan Sulton Valad ba'zan o'zini tutolmay, yig'lar, nola chekardi.

Madrasaning kichik xonasi go‘yo arsh uyi edi. Bu arsh uyining ma‘no yuki nihoyatda og‘ir bo‘lib, uni hamma ham ko‘tarolmas — idrok eta olmasdi. U ishq qozoni edi, yongan, yoqilgan bir qozon...

Bu qozonda Mavlono Shams bilan birga qovrilmoqda edi:

— Orif shunday kishidirki, do‘st zikrini kanda qilmas, uning do‘stligiga to‘ymas. Rizo dasturxonida oshiq ahli og‘ziga kirgan zikrdan totli ozuqa yo‘qdir.

Shams ma‘naviy ilmlar bahsida shunday derdi:

— Ma‘naviy ilm uch narsa birla qo‘lga kiritilgay. Zikr qilgan til, shukur qilgan qalb, sabr qilgan tan. Ilmsiz vujud suvsiz shaharga o‘xshaydi... Vujudni parhez, axloq, g‘ayrat va shijoat birla sug‘ormoq va bezamoq lozim.

Ma‘naviy jo‘mardlik borasida esa:

— Zohidlarga mol jo‘mardligi, jihad qilganlarga tan jo‘mardligi, g‘oziyalarga jon jo‘mardligi xosdir. Oriflarga xos jo‘mardlik esa ko‘ngil jo‘mardligidir. Ko‘ngil halimligidan yaxshiroq hech ne topmadim. Qo‘lingizda boriga qanoat qiling, boshqalarining qo‘lidagiga umid bog‘lamang, — der edi.

Payg‘ambarlarning izzati payg‘ambarlikda, olimlar ning izzati tavozeda, valiylarning izzati ilmda, faqirlarning izzati qanoatda, boylarning izzati jo‘mardlikda, obidlarning izzati esa xilvatdadir. Dinni ikki yo‘l birla qo‘riqlang: jo‘mardlik va yaxshi xulq yo‘li bilan.

Do‘stlik haqida shuni buyurdi:

— Haqiqiy do‘st Tangri kabi mahram bo‘lgaydir. Do‘stning qusuridan, yoqmagan hollaridan injimaslik, xatosidan xafa bo‘lmaslik lozim. Do‘stdan yuz o‘girmaslik, unga e‘tiroz etmaslik darkor... Rahmati cheksiz Tangri o‘z qullarining ayblari, gunohlari, nuqsonlari tufayli ulardan yuz o‘girmagay. Cheksiz bir inoyat va shafqat birla ularga rizq bergay. G‘arazsiz, tamasiz do‘stlik mana shudir.

Shams, bir tomondan, irshod — saboq berarkan, ikkinchi tomondan, muridiga og‘ir riyozatlar chektirib, uni toblamoqda edi. Zotan, Mavlono kamolotga erishish yo‘lida har qanday qiyinchilig-u zahmatga tayyor edi. Mavlono Shams bilan tanishgach, shuurida zuhur etgan yuksalish alomatlari, botiniy o‘zgarishlarni g‘azallaridan birida shunday ta‘riflaydi:



“Sahar chog‘i ko‘kda bir Oy paydo bo‘ldi-yu, ko‘zini bizga tikdi. Ovga chiqib qushga changal solgan lochin kabi ul Oy meni quchib ko‘kka uchirdi... O‘zimga boqdim, ko‘rolmadim. Chunki Oyning lutfi birla badanim jonsiz bo‘ldi-qoldi. Jon olamiga bordim. U yerda ham Oydan boshqasini ko‘ra olmadim. Shunda aza-liy tajalliy sirlari to‘la ayon bo‘ldi”.

Kunlardan bir kun Mavlono xonadon ahliga Shamsning buyukligidan, uning Tangriga bo‘lgan yaqinligidan va cheksiz karomat-lari haqida uzoq gapirib, hurmatini o‘rniga qo‘yishlarini nasihat qiladi. Otasidan bunday iliq so‘z va nasihatlarini eshitgan Sulton Valad Shamsning hujrasiga kirib, qo‘lini o‘padi va yumushlariga qarashadi. Shams kutilmagan bu ziyoratdan hayratga tushib:

— Valad, senga nima bo‘ldi o‘zi? Ko‘p lutf ko‘r sa tib, ko‘nglimni ko‘tarish uchun iltifot ko‘rsatmoqdasan, — deydi. Sulton Valad:

— Hazratim, otam buyukligingiz haqida shunday gaplarni aytdiki, barchamiz hushimizni yo‘qotib qo‘ydik. Agar ming yil umrim bo‘lsa-yu, sizga qul lik qilsam va bu xizmatlarning barchasi qabul bo‘lsa, tag‘in kamina muxlis qulingiz qalbida risoladagidek xizmat qilmadim degan armon qolgay, — deydi.

— Mavlono orttirib yuboribdilar. Yuz minglarcha men kabi Shams Tabriziy u zotning buyuk burjida zarradan boshqa narsa emas. Men bir qancha muqoshafa<sup>1</sup>larga noil bo‘lgan, suluk podshohlarini ko‘rgan, ilohiy nurlarga yaqinlashgan, ko‘plab Haq do‘stlari bilan o‘tirib-turgan, g‘ayb olamlarini ko‘rgan holda Mavlonoga yetisholmadim. Uning haqiqatiga o‘zga kim ham erisha olgay?!

Shams va Mavlono buyuklik burjida bir-birlariga hayrat ila boqarkan, o‘zaro irshod necha kunlardan beri davom etmoqda edi. Ular kichik bir hujrada butun olamni yoritayotgan, tashna ko‘ngil-larga buloq suvlari ulashayotgan ana shunday kunlarda ruhsiz bir dunyo ichdan yonib-kuymoqda edi.

Qo‘nyo xalqi tomonidan nihoyatda sevib-suyilgan hamda va‘zlari, darslari jon qulog‘i bilan tinglangan Mavlononing bun-

<sup>1</sup> **Muqoshafa** — avliyo zotlar qalbidagi sirlarning va g‘aybga oid ishlarning zohir bo‘lishi.

day qo‘qqisdan ko‘rinmay qolishi, madrasani, talabalarini tark etishi, muridlaridan yuz o‘g‘irishi dastlab hammani hayron qoldirgan edi. Qolaversa, oradan bir necha oy o‘tib, g‘iybatlar ko‘paygan, mutaassib to‘da necha yillardan beri o‘zlariga hamtovoq bo‘lgan Mavlononing Shams kabi kim ekani hali-hanuz noma‘lum bir darveshga itoat etib, hamma narsaga qo‘l siltaganiga izoh topa olmayotgan edi. Mavlonoga nisbatan cheksiz hurmatlari, mehr-muhabbatlari ularni rashk sari yetaklagan edi. Kimdir:

— Bu qanday hol? Mavlononi barcha eski do‘stlaridan, ulkan minbaridan tushirib olib, o‘zi bilan band aylagan bu kimsa kim o‘zi? Qayerdan keldi, maqsadi nima? — demoqda, hatto ba‘zan bundan ham ortiq nojo‘ya gaplar aytmoqda edi:

— Shams degan bir darvesh keldi. Mavlonomizni bizdan ayirib, boshqa olamga yetakladi. Bu Shams deganlari kim bo‘libdiki, Mavlononi shuncha yillik muridlaridan sovutsin, uni mutolaa dan, kitoblardan ayirsin. Bu nima degan gap? Afsungarmikin bu odam yoki biror bir sehr qildimiki, Mavlononi bizdan judo ayladi? Xalqni va‘zidan, talabani madrasasidan mahrum etdi.

## JAZBA VA JO‘SHQINLIK DAVRI

Vaqt o‘tgan sari g‘iybat va rashk o‘ti tobora ortgandan ortmoqda edi. Shams Qo‘nyoga kelganiga bir necha oy bo‘lgandi. Bu davr mobaynida Mavloni biron kun ham madrasaga bormay, muridlariga ko‘rinmay qo‘ygandi. Qolaversa, Shams Mavlonoga hech kim bilan uchrashmaslikni uqtirgandi:

— Tangrining do‘stlari Tangrining valiylaridir. Mavloni ham Tangri taoloning valiysidir. Hech shubha yo‘qki, uning ruxsori Mavlonoga qaratilgan. Chunki Mavlononing yuzi ham Unga qaratilgandir... — deya ko‘zini Mavlonodan uzolmay turar edi. Mavloni bilardiki, Shams kelishi bilanoq uning hayotga qarashlarini butunlay o‘zgartirib yuborar edi.

Shamsning Mavloni bilan kecha-kunduz olib borgan sirli, ilohiy suhbat va muloqotlari turli g‘arazlarga, hasadlarga yo‘l ochgandi. Bir kun Shams Mavlononing eshigi oldida o‘tirarkan, mad-